

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

“FILOLOGIYA” FAKULTETI

Eshmurodova Ozoda

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

**MAVZU: ERTAK VA MASAL JANRIDAGI ASARLARNI O‘QITISHDA
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Ilmiy rahbar: N.M.MUHIDDINOVA.

SAMARQAND– 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....

I. BOB. XALQ OG‘ZAKI IJODIDA ERTAK VA MASAL.....

JANRINING O‘RGANILISHI.....

1.1.Ertak janrini darsliklarda o‘rganilishi.....

1.2.Masal janrini darsliklarda o‘rganilishi.....

II. BOB.ERTAK VA MASAL JANRLARNI PEDAGOGIK

TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O‘QITISH.....

2.1.Ertak janrini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish.....

usullari

2.2. Masal janrini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish.....

usullari

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....

Buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimiz taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan isloxatlarimiz va rejalarimizning samarali taqdiri, avvalombor, davr talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli tafakkurga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan bog'liq...

I. A. Karimov

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston davlatining mustaqillik davridagi taraqqiyoti ijtimoiy-siyosiy hayotimizning barcha qirralarida bo'lgani singari madaniy-ma'rifiy sohalarda ham tarixiy o'zarishlarni yuzaga keltirmoqda. Istiqlol mafkurasi tufayli "Tilimizni, dinimizni, urf-odatimizni, ma'naviy qadriyatlarimizni butkul yuqotib qo'yish xavfidan saqlab, asrab-avaylab, ularning azaliy mazmuni va qudratini tiklash..."¹ darajasiga erishdik. Qadimiy merosimiz ildizlarini ko'rsatish, o'tmishdagi boy an'analarni, milliy qadriyat va ma'naviy boyliklarimizni yangi jamiyat qurilishiga tadbiiq etish bugungi hayotimizning bosh vazifalaridan biriga aylandi.

Mamlakatimiz bugun hamjamiyatda egallagan o'rni va intellektual salohiyati bilan ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim isloh qilish kelajakda o'qituvchilik kasbini egallaydigan yangi avlodning yuqori kasbiy madaniyati, ijodiy va ijtimoiy faolligi, ijtimoiy-siyosiy hayotda qatnasha olishi, inson va jamiyat ehtiyojlarini qondirishi tobora takomillashib borayotgan texnologiyalar bilan uzviy bog'liqdir. Zerokiy, Prezidentimiz I.A.Karimov aytib o'tganlaridek: "Taraqqiyotning taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal

¹Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. – T.: Uzbekiston, 1993-йил, 71-бет.

qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy ma'naviy salohiyat – marifatli insonning ikki qanotidir” shu boisdan ham ta'lim tizimi, xususan, o'rta maxsus ta'lim muassasalari faoliyatiga pedagogik texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor berilmoqda. Ta'lim tizimida o'quv jarayoniga texnologik yondoshuvning umumiy asoslari pedagog olimlar tomonidan muayyan darajada tadqiq etilgan deyish mumkin, lekin qayd etilgan tadqiqotlarda, aynan, kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining yosh xususiyati ixtisosligiga mos bo'lgan ta'limnimaqsadi zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish alohida o'rganilmagan.

“Erkin shaxsni shakillantirish muommasi ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy ishlarni pedagogik texnologiya ko'rigiga o'tkazishni taqqozo etadi”²

Mavzuning o'rganilish darajasi: O'zbek xalq ertaklarini yozib olish va nashr etishdagi ilk tajribalar XIX asrning oxiridan boshlangan bo'lsa-da XX asrning 30-yillaridan o'zbek xalq ertaklarini izchil to'plash va o'rganishga kirishildi. 1939-yilda “O'zbek xalq ertaklari” to'plamini nashr etgan B. Karimiy ertaklar tasnifi va asosiy xususiyatlari haqida tadqiqot yozdi. 1964-yilda M. Afzalovning “O'zbek xalq ertaklari haqida” nomli kitobi chop etildi. XX asrning 70-80-yillarida o'zbek xalq ertaklarining janr xususiyatlari, poetikasi, ertakchilik an'analari tarixi va ertak ijrochiligi masalalari K. Imomov, G'. Jalolov va X. Egamov kabi folklorshunoslar tomonidan o'rganildi. Shuningdek, bolalar ertaklari, adabiy ertaklar badiiyativ amagikraqamlarning ertaklardagi poetik vazifalari ham tadqiqotildi. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, K. Imomovning o'zbek xalq nasri poetikasiga bag'ishlangan monografiyasi. J. Yusupovning Xorazm ertaklariga oid tadqiqotlari, shuningdek, Q. Beknazarov, S. Jumayeva, Z. Usmonova, N. Do'stxo'jayeva, M. Sodiqova, N. Qodirov kabi tadqiqotchilarning o'zbek xalq ertaklarini tadqiqotishgaidoirdissertatsiyalari yuzaga keldi.

²Gulbahor Izetayeva “O'quv jarayonlarini texnologik yondashuv asosida tashkeil etish” Xalq ta'limi 2013-yil

Masal janri boyicha ham izlanayotgan olib borilmoqda bugungi kunda F.Isoqov “Zarbulmasalning tanqidiy matnini yaratish ” maqolalarida asar haqida ma’lumot keltirgan. Ertak va masal janrlari bo’yicha ko’p maqolalar nashr etilgan. Keyingi yillarda mavzuga aloqador tadqiqot ishlari, bir qator ilmiy-metodik maqolalar yuzaga keldi. Xususan, Marg’uba Mirqosimovanning “O’quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari”, Qozoqboy Yo’ldoshevning “Adabiyot o’qitishning ilmiy-nazariy asoslari”, Boqijon To’xlievning “Adabiyot o’qitish metodikasi”, V.Qodirovning “Mumtoz adabiyotni o’qitish muammolari va echimlari” kabi kitoblar yaratildi. Biroq bu tadqiqot va qo’llanmalarda biz qo’yg’an masalalar bevosita yoritilmagan hamda tadqiq etilmagan. Ayniqsa, ertak va masal janrlarning metodika sohasida ilmiy maqolalar, tavsiyalar uchrasa-da, yetarlicha ishlar amalga oshirilmagan.

Tadqiqotning maqsadi:Ertak va masal janrini o’rganish uchun belgilab olingan maqsadlar quyidagilar:

- Ertak va masal janrini o’rganishda pedagogik texnologiyalardan foydalanib o’qitish;
- Ertak va masal janrinig tarbiyaviy tomonini o’quvchilar ongiga singdirish va ezgulik ruhida tarbiyalash;
- Darslarni interfaol tarzda olib borish va dars samaradorligini oshirish;
- Ertakva masallariningma’rifiy-badiiy qimmatini aniqlash.

Ishning yangiligi.Ertak va masal janrini darsliklarda va metodika sohalarida o’rganilgan bo’lsa-da, lekin bu janrlarni g’oyaviy jihatdan unchalik o’rganilgan emas shu sababdan ham men bu janrlarning badiiy-estetik tasir kuchini o’quvchilar shuuriga singdirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishini o’z oldimga maqsad qilib oldim.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati.Ish amalga oshirilish jarayonida maktab darsliklarida o’quvchilarning o’quv, bilim faoliyatini izchil shakllantirishga yo’naltirilgan nazariy yondashuvlar bilan boyitildi.

Shuningdek,ertak va masal janrini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish to‘g‘risida tegishli ko‘rsatma va tafsiyalar beriladi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqotni yoritib berishda prezidentimiz I.A.Karimovning ilmiy asarlari, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning adabiyot darsliklari va bu mavzuga doir monografiyalar, darsitatsiyalar, hamda ilmiy maqolalarga tayaniladi.

Tadqiqot metodlari.Obyektiv kuzatgan holda, qiyosiy-tarixiy, nazariy, amaliy va mustaqil ishlash (ijodiy) metodlardan foydalaniladi.

Ilmiy ishning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Ushbu ilmiy bitiruv ishining mavzusi SamDU o‘zbek filologiya fakulteti, amaliy tilshunoslik, o‘zbek tili adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liq bo‘lib, kafedraning umumiy mavzusidan kelib chiqqan holda tanlangan.

Tadqiqotning tuzilishi. Mazkurbitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan.

I BOB. XALQ OG‘ZAKI IJODIDA ERTAK VA MASAL JANRINING O‘RGANILISHI

1.1. Ertak janrini darsliklarda o‘rganish

“...Buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma’rifatli, ayni paytda o‘zining o‘tmishi, ulug‘ qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kerak”³ligini har bir murabbiy chin yurakdan his qilmog‘i lozim. Buni o‘quvchi-yoshlarga tez va oson yetib borishini ta’minlashda esa, bizga adabiyot fani yordamga keladi. Chunki, adabiyotning bosh vazifasi ham tarbiyalashdir.

O‘quvchilarni ham ma’naviy, ham axloqiy tarbiyalashda ertakning muhim o‘rni bor. Shu sababdan ham ertaklar azaldan xalqlarni ayniqsa yosh avlodni insonparvarlik, vatanga muhabbat, rostgo‘ylik va halollik, mehnat sevarlik, xushmuomilalik va kamtarlik ruhida tarbiyalab kelmoqda.

Ertak xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy, ommaviy turlaridan biridir. Ertakning paydo bo‘lishida qadimiy urf – odat, marosimlar, tabiat hodesalari, jonivorlar muhim o‘rin tutgan.

Ertak atamasi Mahumd Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, (“Turkiy so‘zlar to‘plami”) asarida uchraydi va biror voqeani og‘zaki hikoya qilish ma’nosini bildiradi.

“Hayot haqiqat bilan bog‘liq bo‘lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g‘oya tashuvchi og‘zaki hikoyalar ertak deyiladi”⁴. Ertaklarda xayoliy uydirmalar asosiy o‘rinni egallaydi. Ular o‘ziga xos qurilishi bilan ham ajralib turadi. Ertak kirish qismi, voqealar rivoji, tugallanmadan tashkil topadi. Bu janrning xarakterli xususiyati shundaki, ularda fantaziyaga keng o‘rin beriladi, mubolag‘a, giperbola kabi tasviriy vositalardan foydalanadi, Ertaklarda

³Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Т.:Узбекистон миллий энциклопедияси. 1999, 55-бет.

⁴AhmedovS., QosimovB., Qo‘chqorovR., RizayevSh. Adabiyot (Umumiy o‘rtata’lim maktablarining 5-sinf uchun darslik). II qism. – Т.: Sharq, 2011-yil, 107-108-betlar.

ijobiy qahramon albatta yovuzlik ustidan g'alaba qozonadi, yaxshilik tantana qiladi. Chunki ertaklar xalq orzu-umidlarini, manfaatlarini ifodalaydilar.

“Ertak janri ham foklorning janri kabi ijtimoiy-hayotiy, sosal-siyosiy mundarajaga ega to'la yoki qisman badiiy fantaziyadan foydalanish orqali uzoq asrlardan buyon xalq kurashi orzu-umidi intilishlari bilan bog'liq holda yashab kelayotgan xalqimizning ma'naviy yuldohidir”⁵. Chunki har bir davlatning o'tmishini ko'rsatib turadigan ko'zgusi mavjid bo'ladi agar biz ertak atamasiga e'tibor bersak bu so'zning lug'aviy ma'nosi “qadimgi”, “avvalgi” degan ma'nolarni anglatishini bilib olamiz. O'tgan zamonda bo'lgan voqealar, hodesalar haqida bayon etish ma'nosida ertaki degan termin ishlatilgan. Adabiy tilimizda “ertak” termini qabul etigan bo'lsada, Surxandaryo, Samarqand viloyatlarining ba'zi tuman va qishloqlarida “ertak” termini o'rnida “matal” ham deyiladi. Farg'ona viloyatining ba'zi til shevalarida metal, ba'zi shevalarida ertak termini ham mavjud. Buxoroning Qorakul va Rometon tuman va qishloqlarida ikki tilda (o'zbek va tojik tilda) so'zlashuvchi aholi orasida ertak “shuk” yoki “ushuk” ham deyiladi. Toshkent shahri va uning atroflarida ertak termini o'rnida “cho'pchak” termini ham ishlatiladi. Ertak cho'pchak terminlaridan boshqa o'zbeklar orasida hikoya, cho'rchak, afsona, o'trik, total kabi terminlar ham yuradi.

“Cho'pchak” yoki “cho'rchak” so'zining afsona, ertak, va masal ma'nolarida ishlatilganligini Alisher Navoiy asarlarida uchratamiz.

“Habibim husun vasfin o'yla muhlik onglakim, bo'lg'ay

Qoshinda qissasi Yusuf bir uyqu kelturur cho'pchak”.⁶

“Chur” ingichka, kichik cho'p xas ma'nosida keladi. Cho'r-cho'p so'zlarining ma'nosi bir: “cho'p” so'zidan yasalgan “cho'pchimoq” so'zi borki, cho'plarni to'plash ma'nosida ishlatilgan. cho'pchak – kichik hikoyalarni to'plash, izlash ma'nosida bo'lgani uchun topishmoqdagi “cho'pchak” so'zi ham huddi o'zidir. Ertaklar asosan professional, so'zga usta ertakchilar tomonidan ijro etiladi.

⁵Avzalov M. I. Ertak janri // O'zbek til va adabiyot ijurnali, 1998, 4-son, 16-15bet

⁶Alisher Navoiy, Xazoyinul-ma'niy, II tom, “Navodir ush - shabob”, 323 g'azal, O'zbekiston fanlar akademiyasi T., 1959, 321-bet.

Bularni qadimda ertakchi matalchi deb atashgan. Ertakchi o‘z ertagini aytayotganida tinglovchilarga uning emosionalta’sirini kuchaytirish uchun yuzi va gavdasini turli harakatga soladi. Ertakchi ovozini baland, past etib, ertak qahramonlarining psixologik kechinmalarini jonli qilib beradi. Ular aytayotgan ertaklarini o‘zlarini o‘rab olgan tabiat va shaxsiy hayot lavhalari bilan bog‘lashga o‘rinadi. Yu. M.Skolov aytganiday “O‘zining butun turliligi bilan o‘rab olgan hayotning sharbatini qamrab oldi ertakchi ertakning ko‘p asrli tradisiyasiga qaramay, uni o‘zining hayoti, muhiti va borliqning tasviri bilan boy etadi”⁷. Masalan, bir nichaertakchidan tinglagan ertakalar haqidagi xotiralarni keltiraylik. Shu misollar orqali ertak janrining o‘ziga xos xususiyatlari ko‘z oldimizda bir muncha gavdalanadi.

Bir ertakchidan ertak eshitdik. U ertak aytayotganda voqiyalarning ichiga kiradi, turli harakatlar qiladi, o‘rni kelganda ikki qo‘lini yerga tomon cho‘zib, osmonga qarab ko‘taradi o‘rnidan turib ketadi. Ertakda otning harakati kelib qolsa, kishnaydi, yer tepadi. Ayiq bo‘lsa, bo‘kiradi, mushuk bo‘lsa, meyvovlar, sichqon bo‘lsa, chiyillar edi. Shunda biz ertaklarning ritmikasiga, ta’sir etish qobiliyatiga, estetik kuchiga qoyil qolamiz. Bu ko‘proq saj san’atining ertak janrida o‘ziga xos o‘rni borligidadir. Bu o‘ziga xoslik ertakchining so‘z boyligiga bog‘liq. Masalan, xorazimda yozib olinga “Qirq yolg‘on” ertagida yitim bolaning tasviri saj vositasida beriladi: “Usti boshi yalng‘och, gadoylikda qorni och, labi –lunji gezarga bir yitim bola xoning saroyiga kelibdi”. Ertaklar ko‘pincha “Murod-maqsadiga yetdi, saqqoli ko‘ksiga yetdi”kabi iboralar bilan tugaydi. Ba’zi ertaklarda esa, “Yaxshi yetsin murodga yomon qolsin uyatga ”, degan didaktik so‘zlar bilan, ba’zilari “qirq kecha-yu, qirq kunduz to‘y berib, murod maqsadiga yetdilar” kabi optimistik ruhda xotimlanadi. Ertaklarda ko‘pincha uch og‘ayni, yoki podshohning uch qizi ishtirok etadi. Uch og‘ayni safarga chiqqanda uch yo‘lduch keladi. Biri borsa kelmas, biri borsa kelar, biri borsa xata. Kenja botir esa akalarini ikki yo‘lga (borsa kelar, borsa xatar)jo‘natib o‘zi borsa kelmas tomonga

⁷Afzalov M. I. Ertak jibri. O‘zbek tili va adabiyoti // 1993, 12-13-betlar.

yo‘l oladi. Kenja botir ertaklarda hamisha akalariga qaraganda aqlli, tadbirli, epchil, chaqqon uddaburon, to‘g‘ri so‘zli, adolatli, insonparvarsifatida tasvirlanadi. (“Uch og‘a-ini botirlar” ertagidagi kenja botir buning yaqqol misoli bo‘ladi).

“Ertakalar turli mavzularga bo‘lishni birinchi bo‘lib, Ante Arne boshlab berdi. U o‘zining “Ertaklar turlarining ko‘rsatmasi” asarida uch turga bo‘ladi:

1. Hayvonlar haqidagi ertaklar.
2. Sehrli (Fantastik)ertaklar.
3. Anekdotlar.

Bularning ichida eng murakkabi ikkinchisidir. H.P.Andreev buni Ante Arne asosida yana to‘rtga bo‘ladi: a)sehiri ertaklar; b)afsona-ertaklar; d) novilla ertaklar; e) ahmoq shayton haqidagi ertaklar”.⁸

O‘zbek adabiyotida ham ertaklarni turli mavzuga qarab bo‘linishi mavjid. Ular shartli ravishda

- 1) hayvonlar haqidagi ertaklar;
- 2) sehrli ertaklar;
- 3) hayotiy – maishiy ertaklar;
- 4) hajviy ertaklaragabo‘linadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar barcha qiziqadigan fantastik hikoyalardir. Ulardagi asosiy mazmun majoziy, ya‘ni ko‘chma ma‘noga ega. Masalan, ayyorlik va munofiqlik tulki, qonxurlik, laqmqlikbo‘ri orqali ifoda etiladi.”Bo‘ri bilan tulki”, “Echkining o‘ch olishi”, “Ochko‘z bo‘ri” kabi ertaklar ana shundayasarlardir.

Sehrli ertaklar bizda xuddi Yu. M.Skollov aytganidek, turli “sehr”lar bilan bog‘lanadi. Bu sehrli ertaklarning qahramonlariesa sehrli sujet bilan bog‘langan kishilar bo‘ladilar ham doim “sehrli ishlarga ” “sehrli joylarga ”, “sehrli narsalarga ”yuliqadilar. Katta-kata qo‘rqinchli va dahshatli tilsimlar ochiladilar. Bunday sehrli ertaklarning qahramonlariga yordam ko‘rsatuvchilar esa sehrli narsalar bo‘ladi.

⁸Buyuk Karimiy O‘zbek xalq ertaklarining ba‘zi bir xususiytlari haqida, O‘zbek tili va adabiyoti// 1995, 5- son,58-bet

Sehirli ertaklarning qahramonlari o‘z dushmanlari yoki o‘z boshlariga tushgan kulfatlari turli, g‘ayritabiiy yo‘llar bilan qutuladilar.

Sehirli ertaklarda sehir – jodu, fantastik uydirmalar asosiga qurilgan bo‘ladi. Asar qahramonlari har narsa qo‘lidan keladigan mo‘jizakorkimsalar (“Yalmog‘iz” “Devbachcha”)yoki jonlantirilgan narsa yoxud hayvonlardan iborat(“Ur to‘qmoq”, “Ochil dasturxon”, “Semurg”, “Susambil” ertaklari). Bu ertaklarning maqsadi ham turli g‘ayri insoniy illitlar: yolg‘onchilik, johillik, ikkiyuzlamachiliknila’natlash, aqil-farosatlilik, jasurlik, rahimdillik kabi chin insoniy xususiyatlarni targ‘ib qilishdir. Masalan,“Ur to‘qmoq”ertagida laylak kal yoki kambag‘al cholga yordam beradi. Unga “ur to‘qmoq”, “ochil dasturxon”, “pishti palov” kabi asboblari taqdim etadi. “Uch og‘ayni” ertagida qahramonga chimolilar yordam berib, sochilgan donlarni yig‘ib beradilar.

Hayotiy – mazisiiy ertaklar. Xalqimiz yaratgan xayoliy hikoyalar orasida shunday turkum ertaklar boriki, ularni biz hayotiy- maishiiy ertaklar deb ataymiz. Bunday ertaklardagi voqealarning aksariyati hayotga yaqin, hayotdan olingan. “Zumrad va Qimmat”, “Oygul bilan Baxtiyor”, “Ziyod botir”, “Tohir va Zuhra”, “Ozodachehra”, “Farhod va Shirin”, “Malikayi Husnobod”, “Uch og‘a-ini botirlar” ana shunday ertaklar sirasidandir. Biz yuqorida tilga olgan hayotiy-maishiiy ertaklar kishida jiddiiy fikr-mulohazalar uyg‘otadigan, muayyan tarbiyaviy yo‘nalishga ega bo‘lgan asarlardir. Siz ular bilan tanishgach, botirlik, yurtga fidoyilik, odamgarchilik, vafodorlik, himmat va saxovat haqida aniq tasavvurga ega bo‘lasiz, o‘zingizda ham ertaklar qahramonlaridagi yaxshi fazilatlarni bo‘lishini xohlab qolasiz, shunga intilasiz.

O‘zbek xalq og‘zai ijodi tarixida ertaklarning badiiiy asar darajasiga ko‘tarilishi va bugungi kungacha saqlanib qolishida Hamrobibi Umaraluqizi, Hasan Xudayberdi o‘g‘li, haydar Baychi o‘g‘li, Nurali Nurmat o‘g‘li, Husanboy Rasul o‘g‘li kabi ertakchi matalchilarimiz katta xizmat qilganlar. Ular og‘izdan yozib olingan o‘zbek xalq ertaklarining bebaho namunalari bizga hanuzgacha ma’naviiy zavq berib kelyapdi.

Ertaklarning yaratilishiga ko‘ra yana bir turi yozma ertaklardir. U jahon adabiyoti, xususan, o‘zbek yozma adabiyotining katta qismini tashkil etadi. Kiyingi ikki – uch yuz yillikda fransuz ertakchisi Sharl Perro(1628 -1703), nemis ertaknavislari Ernst Teodor Amidiy Gofman (1776-1822), aka-uka Yakob Grimm (1802-1877), va Vilgelm-Karl Grimm (1786-1859), daniyalik Hans Kristian Andersen (1805-1875),angliyalik Oskar Uayld(1854-1900), rus ertachilari A.S.Pushkin (1799-1837)ijodining roppa-rosa o‘n yilini faqat bolalar uchun hikmatli hikoyalar va ertaklar yaratishga bag‘ishlagan L.N. Tolstiy (1828-1910), K.D. Ushinskiy (1824-1870) yozma ertakchilikni rivojlantirishga katta hissa qo‘shdilar. O‘zbek yozma ertakchiligida ham katta tarixga ega. Jadid bobolarimiz Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidmon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Hamza Haimzoda Niyoziy O‘zlari tuzgan maktab darsligi uchun ko‘plab ibratli ertaklar yaratdilar. o‘tgan asr o‘rtalarida Hamid Olimjonning “Oyguil bilan Baxtiyor”, “semurg‘”, Sulton Jo‘raning “Zangori gilam”, Shukir Sadullaning “Ayyor chumchuq”, “No‘xat palvon”, “Laqma it” she‘riy ertaklari, “Yoriltosh”, “Afsona yaratgan qiz” ertak – pyesalari, “Kachal palvan” ertak qissasi mashhur bo‘ldi. Adiblarimizning ertakchilik sohasidagi an‘analarni keyinchalik X.To‘xtaboyib, A. Obidjon, T. Adashboyev kabi ertaknavis mualliflarimiz davom ettirdilar.

5-sinf adabiyot darsligidan ma’lumotlar

“Uch og‘a-ini botirlar”ertagi haqida

Erta xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy, ommaviy turlaridan biridir. Ertakning paydo bo‘lishida qadimiy urf-odat, marosimlar, tabiat hodesalari, jonovorlar muhim o‘rin tutadi.

Kechagina boshlang‘ich sinfni tugatgan va hali ertakalar dunyosidan uzilib ulgurmagan xayolparast bolakaylarning o‘rta bosqich adabiy ta’limida ham ertaklar tanishishi ularning shaxs sifatida shakillanishida muhim ahamiyat kasb etadi. “Uch og‘a ini botirlar ”ertagini o‘qishga kirishishdan oldin o‘qituvchi keying dars “ertak darsi” bo‘lishini unda o‘quvchilar o‘zlari ertak to‘qishlarini, darslikdagi

ertakni o‘qish, uning matni ustida ishlash jarayonida bo‘lajak ertak darsiga material yig‘ib boorish lozimligini aytadi”⁹.

Aytib o‘tganimizdek ertakning bir necha turlari mavjud edi shunga ko‘ra “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi hayotiy-mayishiy ertaklar turiga kiradi. Ertakning voqealari juda qiziqarli bo‘lib, tarbiyaviy ahamiyati ham kattadir. Qadim zamonda o‘rtahol bir kishi yashagan ekan. Uning uch o‘li bo‘ladi. O‘g‘illarini safarga kuzatib qo‘yishdan oldi ularga shunday pand-nasihatlar qiladiki, biz bu pand-nasihatlardan ushbu kishining qanday odamligini osongina bilib olamiz. “O‘zimdan keyin baxtsiz bo‘lib qolmaglar deb, sizlarni o‘qitdim”, - deydi. Haqiqatdan ham o‘qigan odam dunyoni taniydi, oq-qoraning farqiga boradi, Bu kishi o‘g‘illarini tarbiyalashda uch narsaga amal qiladi. Birinchidan, sog‘lom qilib tarbiyalaydi, natijada o‘g‘illari baquvvat bo‘lib o‘sadi. Ikkinchidan, qurol -yarog‘ bilan tanishtiradi, natijada o‘g‘illari yarog‘ ishlatishga usta bo‘ladi. Uchinchidan, qo‘rqitmay o‘stiradi, natijada o‘g‘illari botir, dovyurak bo‘lib voyaga yitadi. Endi bo‘larning ustiga ilmi ekanini qo‘shsak, ular naqadar barkamol yigitlar ekanini bilamiz. Biroq ularning otasi bu bilan kifoyalanib qolmaydi. U o‘g‘illarini yanada mukammal bo‘lishlarini istaydi. Shu sababli ularga uch narsani uqtiradi: “To‘g‘ri bo‘ling – bexavotir bo‘lasiz. Maqtanchoq bo‘lmag – xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang –baxtsiz bo‘lmaysiz”. O‘g‘illariotalarining bu o‘gitlariga amal qilganlari uchun ham barcha xatarlardan omon chiqadilar.Hatto podshoh o‘zining uch qizini ularga berib, og‘a-inlarni o‘zlariga kiyov qilib oladi. Endi ular saroyda qolib yib-ichib yashasa ham bo‘lardi. Podshohning o‘zi ularga shuni taklif qiladi. Biroq og‘a-inilar bo‘nga rozi bo‘lmaydilar. Bu ertak orqali biz adolatli va adolatsiz shoh haqidagi xalq tushunchalarining tadrijiy takomilini ko‘rishimiz mumkin. “Uch og‘a-ini” botirlarsinov epizotlarida aniq namoyon bo‘ladi “Ertakda asosiy konfliktni tashkil etgan epizot sinov motivi bolib, bu sinov botirlarning o‘zoro suhbatga kirishlaribilan yichiladi Tung‘ich botir: “shu go‘sh t qo‘zining go‘sh t ekan, biroq qo‘zi it emib katta bo‘lgan ekan”. O‘rtancha botir: “to‘g‘ri aytasiz

⁹Qunduzoy Husanboyeva Tahlil – adabiyotni anglash yo‘li, Toshkent., 2013, 99-bet.

podsho degan itning gushtidan ham qaytmaydi”. O‘rtancha botir: O‘rtancha botir o‘z javobida “podshoga” urg‘u beradi. Bu urg‘u umuman podshohlar degan ma‘noni bildirib, ular xalq mulkini doimo talab kelgan yovuz zolim. O‘rtancha botirningbu nutqi umuman podshohlar ustidan chiqarilgan xalq hukmi bo‘lib eshitiladi. O‘rtancha botir o‘z so‘zini tasdiqlash uchun: “Men ham bir narsaga hayron bo‘lib turibman. Shu shinnidan odamning isi keladi” – deb podshohning kimligini aytmqochi bo‘lganida, uning fikrini kenja botir to‘ldirib tasdiqlaydi. “To‘g‘ridir, podshohlik - qonxo‘rlik demakdir. Qon qo‘shilgan bo‘lsa ehtimoldan uzoq emas; lekin yomonning qoni bo‘lsa-ku, mayli, begunohning qoni bo‘lmadsin”. Podshohlar qonxo‘rlik, zolimlik, adolatsizlikda ayiblanar ekanlar, bu g‘oyalar ham ertakdagi bodshohga ham tegishliligini keyingi epizotda yana ham oydinlashadi.

Kenja botir: “Dasturxonda taxlagan noni otasi nonvoy ekan” – deydi. Haqiqatdan ham noni podshoh taxlagan edi. Xulosa, shoh nonvoy oilasidan chiqqan, shunday ekan, uxalq fikricha, adolatli bo‘lishi kerak edi. Lekin unday bo‘lib chiqmaydi. U – zolim, hasadchi qizg‘anchiq molparast va shuhratparastpodshohning bunday xislatlari, kenja botirni sababsiz zindonga tashlanishida isbotlandi.

“Bu ertaklarda sinov motivlarida hayoliy ertaklardagidek podshohni adolatli bo‘lishga chaqirmaydi, chunki undagi o‘tkit satira umuman podshohlik tuzimiga qaratilgandir. Podshoh kenja botirning qolishini va taxtga voris bo‘lishini so‘rab, yana bir sinaydi. Shunda kenja botir “Bizlar podshoh bolasi emasmiz, otamiz boy ham emas, sizning davlatingiz podshohlik bilan topilgan, biz qo‘l kuchi bilan tarbiya ko‘rganmiz, elimiz bir bo‘lsa ham tarbiyamiz boshqa”, deb sinfiy chegarani aniqlar ekan, podshohlikdan voz kechadi. Chunki mehnatkash xalqning ijtimoiy ongi borgan sari o‘sib, dunyoqarashi kengayotgan edi”.¹⁰

¹⁰Imomov A. Ertaklarda sinov motivi //O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 1983, 5-son, 63-bet

“Susambil” ertagi haqida

Hayvonlar haqidagi ertaklar barcha qiziqib tinglaydigan va o‘qiydigan fantastik hikoyalardir. Ulardagi asosiy mazmun majoziy tarzda tasvirlanadi, asar qahramonlari hayvonlar bo‘lsa-da, voqealar odamlar turmishi kabi kechadi. Hayvonlar haqidagi ertak personajlari - bo‘ri, tulki sher, parranda va hasharotlar xuddi odamlardek harakat qiladilar, gapiradilar.

Xalqimizda birovning salbiy qilig‘i, muomilasi hamisha ham yuziga aytilmaydi, aniqrog‘i, birovning aybini ko‘rsatib tanbeh berishdan ko‘ra, uni yomon odatlardan ogoh etish, qaytarish millatimizga xos xususiyatdir. Bema’ni xulqli odamni yaxshi yo‘lga boshlash, tarbiyaga muhtoj insonni ezgu ishlarga undashda xuddi shu hayvonlar haqidagi ertaklar, ulardagi majoziy qahramonlar qo‘l keladi. “Susambil” ertagi o‘z mazmuni bilana shunday asarlardan biridir.

Beshinchi sinf “Adabiyot” darsligidagi “Susambil” ertagi matni bilan tanishishga birinchi darsning 21-22 daqiqasi sarflanadi. Qolgan vaqt va ikkinchi soat to‘lig‘icha asarning tahliliga bog‘shlanadi. Ertak matni ustida ishlaganda o‘qituvchi “Ertakdagi jonivorlar obrazining mohiyati” ni “Susambil adolat qaror topgan va hamma baxtli yashaydigan afsonaviy yurtning timsoli” ekanligini, “asarning tili, undagi ramzlar va badiiy ifoda xususiyatlari” ni ochishga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Bu ertak o‘zbek xalaq ertaklari orsida tili tasvir jozibasi, mavzusining muhimligi bilan ajralib turadigan asar. Avvalo, ertakda xalqimizning adolat va farovonlik hukm suradigan zamonlar haqidagi orzulari aks etgan. Susambil ertagda adolat qaror topgan va hamma baxtli yashaydigan afsonaviy yurt timsoli sifatida tasvirlanadi. E’tibor bersangiz, eshakvoy yo‘lda yo‘ldosh bo‘layotgan har bir jonivorning “Susambil qanday joy?” degan savoliga “Susambil - o‘tning bo‘log‘i, suvning tinig‘i, unda azob - uqubat yo‘q, maza qilib yurasan”, deb javob beradi.

Ikkinchidan, jonivornig ko‘zlagan maqsadlariga erishishlarida ularning sabr-toqatli bo‘lganliklari, mashaqqatlarga chidashgani muhim ahamiyatga ega

bo'ladi. mashqqatlarga bardosh bergan jonivorlar jannatmakon go'sha – susmbilga yetib keladilar, shu joyda rohat- farog'atda umr kechiradilar.

Uchinchidan, jonivorlarning o'zaro axilliklari, birdamligi ularning tashqi dushman – bo'rilar galasi hujimidan qutqaradi. Bo'rilar podshohi Susambilni tashlab yetti tog'ning narigi tomoniga qochib ketadi.

Mazkur ertak nihoyatda ravon, xalqchil, shirali tilda berilgan. Ertak boshlanishdayoqkishini o'ziga jalb etadi. asar boshlanmasidagi an'naviy kirish so'zni olamizmi, tabiat tasviriga bag'ishlangan o'rinlarni olamizmi yoki personajlar – eshak, ho'kiz, xo'roz, kalamushlar, bo'rilarning suhbatidagi boy nutq kishi diqqatini tortadi, o'quvchi voqealar ichida yurgandek his etadi.

Hans Kristian Andersenning “Bulbul” ertagi haqida

H. K. Andersen ijodidagi “Bulbul” ertagi ham buyuk ertakchi yaratgango'zal asarlardan biridir. Bu ertakni go'zallik va ezgulikni ulug'lovchi, soxtalik va qabihlikni qoralovchi, uning inqirozi muqarrarligi haqidagi asar, desak yanglishmaymiz. Ertakning qisqacha mazmuni quyidagicha: Xitoy imperatorining qaramog'idagi bepoyon bog'ning to'rida bir sayroqibulbul yashaydi. Bu mamlakatga kelgan xorijlik elchilar va sayyohlar imperatorning g'aroyib chinni saroyi, jannat simon bog'lari va undagi bulbul xonishidan zavqlanadilar, ayniqsa, imperator bog'idagi bulbulning kishini sel qilib sayrashi ulami hayratda qoldiradi. Kuylovchi qushchaning dong'i butun olamga mashhur bo'lib ketadi. U haqida qasidalar, kitoblar yoziladi. Faqat mamlakat hukmdori imperatorgina o'z bog'ida shunday mo'jizakor qushcha borligini bilmas edi. U ham bulbul haqida xorijdan unga yuborilgan kitoblarni o'qib biladi, bundan avval ajablanadi, keyin esa g'azablanadi. O'z amaldorlariga bulbulni yertagidan bo'lsa ham topishni, aks holda barchalarini qattiq jazolashini aytib, farmon beradi. Bulbulni saroyga taklif etadilar, uning sharafiga katta ziyofat beriladi va uning bemalol sayrashi uchun oltindan qo'ndogiyasaladi. Ziyofatga barcha to'plangach, imperator jajji qushga hurmat ko'rsatib sayrab berishini taklif qiladi. Bulbul shunday dilbar bir navo qiladiki, imperatorning ko'zlaridan duv-duv yosh kelib, yonoqlariga oqa

boshlaydi. Qushning qo‘shig‘i yuraklarga jiz etib tegadi. Imperatorxursand bo‘lganidan o‘zining oltin tuflisini mukofot qilib, bulbulningbo‘yniga osib qo‘yishga qaror qiladi. Bulbul mukofotni rad etadi. Jamoagaqarab: -“Qo‘shig‘imni eshitganingizni o‘zi men uchun mukofot.Imperatoming ko‘zlaridan yosh oqqanini ko‘rdim, menga bundan ortiqmukofot kerak emas”, — deydi.Kunlardan bir kun imperatorga paket olib kelishadi. O‘ramning ustiga”Bulbul” deb yozilgandi. Imperator: Bizning mashhur qushimizto‘g‘risida yana yangi kitob chiqarishibdi-da, — degan o‘yda qog‘ozgao‘rog‘liq narsani ochsa, u kitob emas, g‘aroyib bir quticha bo‘lib chiqadi.Qutichaning ichida xuddi rostakam bulbulga o‘xshash, biroq patlari-yuqanotlariga dur-u gavharlar qadalgan sun‘iy bulbul bor edi. Bu qushningmurvati burab qo‘yilsa, rostakam bulbulning qo‘shiqalaridan kuylab,oltin bilan kumushday tovlanayotgan saroy ahli har ikkala bulbul qo‘shig‘ini tinglay boshlashadi. Ammo ishyurishmaydi. Chunki jonli bulbul har gal o‘zicha yurakdan kuylar, sun‘iybulbul esa xuddi qo‘g‘irchoq sharmankaday faqat bir yo‘sinda qo‘shiqaytar edi. Saroy amaldorlariga faqat bir yo‘sindagi qo‘shiqni qayta-qaytatakrorlaydigan sun‘iy bulbul yoqa boshlaydi. Biroq imperator tirikbulbulni ham qo‘shiq ayttiraylik degan istak bildiradi. Tirik bulbulni qidiribqoladilar. Ammo u g‘oyib bo‘lgani, yam-yashil o‘rmon sari uchibketganini hech kim payqamay qolgan edi. Imperator bulbulni ko‘rnamaklikdaayblaydi, amaldorlar esa uni pastkash maxluq deya atashadi.Chunki ular jonli qushning ko‘zdan g‘oyib bo‘lganidan ich-ichlaridanxursand edilar. Negaki, ular uchun tirik bulbulning qachon qandaykuylashini bilolmay xunob bo‘lgandan ko‘ra, sun‘iy bulbulning oldindannima haqida kuylashini bilib turishi bexavotirroq edi. Sun‘iy bulbulningqo‘shig‘i mamlakatning barcha aholisiga eshittiriladi va u barcha uchunyod bo‘lib qoladi. Hamma bir xil kuylay boshlaydi. Faqatgina kambag‘albaliquchilargina bu qo‘shiqda nimadir yetishmayotganini e‘tirof etishadi.Kunlardan bir kun sun‘iy bulbulning ovozi o‘chib qoladi. Uni biramallab tuzatishadi va endi o‘yinchoq qushga faqat yiliga bir marta qo‘shiqayttiradigan bo‘lishadi.Oradan besh yil o‘tgach, imperator qattiq kasal bo‘lib qoladi.Amaldorlar

toshakka mixlanib qolgan imperatordan xabar olish, ungag'amxo'rlik qilish o'rniga hukmdorning qazosini poylab, uni o'ldigachi qarishadi. Biroq hali imperator tirik, u o'lim bilan olishib yotar, ko'kragida Azroyil o'tirib olgan edi. Unga na sun'iy qushcha, na saroya'yonlari yordamga kelishga oshiqmas edi. Shu payt deraza ortidan ajoyibbir kuy yangray boshlaydi. Chinakam bulbul imperatorning og'ir kasal bo'lib, o'lim bilan olishib yotganini eshitib, unga dalda berish uchun uchib kelgan edi. Bulbul sayray boshlashi bilan imperator atrofidagi ins-jinslar xiralashib ortiga chekinadi. Hukmdorning tomirlarida qonyurisha boshlaydi. Azroyil imperatorning toji, oltin qilichi va qimmatbahodavlat bayrog'ini qaytib berib, saroyni tark etadi. Imperator sog'ayib yoqqa turadi va bulbulni yana taqdirlamoqchi bo'ladi. Biroq bulbul mukofotni tag'in rad etadi. Kuychining ko'nglini ko'taradigan oliy mukofot imperatorning hayajonli ko'z yoshlari ekanligi, u hukmdorniboshidagi toji uchun emas, qalbi uchun sevishini aytib, uchib ketadi. Ertakning asosiy mazmuni shu. Mazkur ertak bilan to'liq tanishib, uning zamirida qanchalar chuqur ma'no yotganini yana ham teranroq anglaymiz. E'tibor bersangiz, H. K. Andersen "Bulbul" ertagida ham, "QorMalikasi"da bo'lgani kabi, chinakam insoniy tuyg'ulami, yurakdan aytilgan so'zlarning mo'tabar ekanligini ta'kidlayapti. Soxtalikni, tilyog'lamalikni, sun'iylikni qoralayapti. Buyuk ertakchi insonning xatti-harakatidagi tabiiylik, fidoyilik, oqibatlilik har qanday to'siqni yengib o'tishi, mo'jizalar yaratishga qodirligini "Bulbul" ertagi voqealari orqali isbotlay olgan. Ertak voqealarini sinchiklab kuzatadigan bo'lsak, bulbul chinakam san'atni tushuna olgan, undan ta'sirlangani uchun imperatordan minnatdor bo'ladi. Hukmdorga sodiq do'st bo'lib qoladi. Ertak data'kidlanganidek, unga boshidagi toji uchun emas, insoniy dardni tushuna olgan qalbi uchun xayrixoh bo'ladi. Eng og'ir damda yordamga kelib, o'limdan qutqazadi. "Bulbul" ertagi kishini qalbakilikdan, ikki yuzlamachilikdan, yolg'onchilikdan qaytaradi. Inson qalbini tushunib yashashga, har bir narsadan go'zallik topa olishga undaydi.

Ertaklar janriy jihatda birnicha turlarga bo'lish mumkin: ertak-doston, ertak-pyesa, ertak qissa, ertak-hikoya tarzida birqancha turlarga bo'linadi. Shulardan ertak-doston haqida ma'lumot berib o'tamiz

Ertak-doston o'zida ham ertaklarning, ham dostonlarning xususiyatlarni mujassametadi. Ertak-doston asosan shoirlar tomonidan yaratiladi. U mazmunan ertakka, shaklan esa dostonga yaqin turadi. Ya'ni voqealar xuddi ertakdagi kabi boshlama, voqealar rivoji, tigllanmadan tashkilotopadi. Ammo bu voqealar nasriy usulda emas, balki she'riy usulda bayon etiladi.

Shoirlar har qanday ertakni ham she'rga solavermaydilar. Avvalo, bu ertakning sujeti juda qiziqarli, voqealar rivoji tarang bolishi kerak. Shoir uni o'z iste'dodi, dunyoqarashidan kelib chiqib, o'z davrining muommolariga moslashtiradi. Shuningdek, ijotkor ertak-doston yaratar ekan, unga asos bo'lgan ertak-doston voqealarini she'riy usulda aynan bayon etib bermaydi. Ertakdagi voqeaga o'zidan nimanidir qo'shishi, nimanidir o'zgartirishi, nimanidir tushirib qoldirishi mumkin.

Barcha ertak-dostonlar ham xalq ertak va afsonalari asosida yaratilavirmaydi. Bu voqealarni shoirning o'zi o'ylab topishi, ya'ni hali xalq og'zaki ijodi yoki yozma adabiyotda ma'lum bo'lmagan mutlaqo yangi asaryaratishi ham mumkin. Ertak-dostonlar ba'zan she'riy ertaklar deb ham ataladi.

Jahon adabiyotida Ubayd Zakoniy, A.S. Pushkin, K. Chkovskiy, S. Marshak ertak-dostonlarning ajoyib namunalarini yaratganlar. O'zbek adabiyotida A. Avloniy, Q. Hikmat, Z. diyor, H. Olimjon, M. Shayxzoda, Q. Muhammadiy, P. Mo'min kabi ijotkorlar ertak-doston janirining rivojiga munosib hissa qo'shadilar¹¹.

O'zbek adabiyotida ertak-doston yaratish tajribasi boy tarixga ega. Folklor asarlarni, ya'ni xalq orasida og'izdan-og'izga o'tib, keng tarqalgan ijod namunalarini shoirlarimiz tomonidan o'z zamonlariga moslab qayta ishlab, she'riy

shakiga solish an'anasi Furqat, Abdulla Avloniy, Elbek, Quدرات Hikmat, Zafar Diyorkabi shoirlarimiz ijodida uchraydi. Bu adabiy janrda, ayniqsa Hamid Olimjon yuksak mahorat ko'rsatgan. Uning 30-yillarda yaratilgan "Oygul bilan Baxtiyor" "Semurg' yoki Parizod va Bunyod" kabi ertak dostonlar kitobxonlar o'rtasida juda mashhurdir. O'z do'sti kabi Maqsud Shayxzoda ham xalqimiz o'rtasida keng yoyilgan "Iskandar Zulqarnayn" ertagini adabiy jihatdan qayta ishlab, uning tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytirib, she'riy shaklga soladi. Milodgacha, ya'ni yangi kalendar bo'yicha hisoblangan hozirgi ikki ming yillik tarixga qadar bo'lgan davrlarda qadim Yunonistonda Aleksandr Makedonskiy nomli buyuk bir shoh-fotih o'tgan. U juda ko'p mamlakatlarni bosib olib, u yerdagi barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni talagan, odamlarni qul qilgan. U uzoq janglar qilib, hozirgi O'rta Osiyo yerlarini ham o'ziga bo'ysundirgan. Uni, Yunonistondan bo'lgani uchun, O'rta Osiyo xalqlari IskandarRumiy deb ham ataganlar. Bu jahongir haqida turli rivoyat va ertaklar to'qiganlar. O'sha ertak va rivoyatlar Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Adurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug' Sharq shoirlari ijodiga ham o'ziga xos ta'sir ko'rsatganki, u haqda og'zaki afsonalar qatori mazkur adiblarning teran falsafiy dostonlari ham yaratilgan. Masalan, Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor" ertak-dostoni, agar e'tibor bergan bo'lsangiz, juda ravon, qiyinchiliksiz o'qiladi. Buning sababi, asar 7 bo'g'inli she'r yo'lida yozilgani bilangina izohlanmaydi. Albatta, hamma gap Hamid Olimjon qalami kuchi bilan qayta yaratilgan badiiy tilning xalq tiliga juda yaqinligi, bu til o'xshatish, jonlantirish, qiyoslash va yana boshqa juda ko'plab she'riy san'atlar ila mohirona bezalgani, boyitilganidadir. Masalan, misralar oxirida keladigan ohangdosh so'zlar — qofiyalardagi bir tovush o'zgarishi orqali mazmun rang-baranghiga erishishni qator misollarda yaqqol ko'ramiz. Jambil elining qonxo'r xoni zulmga qarshi bosh ko'targan xalqqa rahbarlik qilgan keksa Darxonning boshini tanasidan judo qilib, uning go'zal qizi Oygulga tikilishi:

Qizning oldida bu *xirs*

Ko'rsatib yovvoyi *Hirs*, — deya tasvirlanadi. “Xirs” fors-tojik tilida “ayiq” degani bo'lsa, “hirs” —insonning qo'pol nafsini ifodalaydigan tushunchadir. Demak, xon o'zining jism-u joni bilan qo'pol, hissiz, yirtqich maxluqqa qiyos qilinsa, uning bokira Oygulga qarashida shunday tabiatli kimsalarga xos bo'lgan pastkash nazar mujassam etiladi. Shu o'rinda bir muhim narsaga diqqat qilishingiz foydalidir. H.Olimjon yuqoridagi usuldan faqat misraning jozibadorligi, she'r bezagi uchungina foydalanmaydi. Balki asardagi har bir tashbeh ostida kuchli mantiq yotadi. Shoir o'z qahramonlari xarakteriga mos sifatlarni, tasvirlanayotgan manzara yoki holatga uyg'un o'xshatishlarni topadi. Jumladan, yovuz xonning insoniy qiyofani yo'qotib, hayvonsifat kimsaga aylanib borishi butun asar davomida ko'z oldimizda yaqqol gavdalanadi. Muallifbu qarashni boyita borib, xonning qo'lga olinishini ham aynan hayvon saqlanadigan joyda “amalga oshiradi”:

Soqchilar zolim xonni,
Bu ajoyib hayvonni
Og'ilda ushladilar,
O'lguday mushtladilar...

Dostondagi shunga o'xshash yana bir badiiy topilmaga e'tibor bering. Oygulning baliq qornidan topib olgan gavharini sotish uchun bozorga tushgan Baxtiyorning otasini ustomon savdogar “Cholni qo'ymay *holiga*, Olib chiqib *xoliga*” gaplashadi...

Hamid Olimjon xalq iboralari, maqollarini asari bag'riga tabiiy singdirib yuborgan. Masalan:

“Faryod chekkan jonini Qo'ymoqqa topmadi joy”;

“Men ham qulman, qanotim Senikiday qirqilgan”;

“Oy deganda yuzi bor, Kun deganda ko'zi bor”;

“Yuzi gul, sochi sumbul — Bizning qayg'uli Oygul” va boshqalar.

Shoir bosh qahramonlar qiyofasini chizishda hamxalq og'zaki ijodi an'analariga sodiq qoladi, ularni yanada sayqallaydi. Mana, birgina misol. Siz

bilan bizga doston voqealariga endi kirib kelayotgan cho‘pon yigit Baxtiyor “tanishtirilmoqda”. Shoir avval boshdan yigitni “go‘zal edi” deb ta’riflaydi. Lekin, bilasizki, “go‘zal” sifati ko‘proq qizlarga nisbatan ishlatilib, uni yigitlar ta’rifida qo‘llash g‘alatiroq tuyuladi. Xo‘sh, unda Baxtiyorning “go‘zalligi” nimada edi? Shoir, o‘z qahramonini bejiz bunday atamaganini o‘sha misraning o‘zidan boshlaboq asoslaydi. Baxtiyorning go‘zalhgi-uning metinday tanasiga chinorlar ham havas qilishida, bu yigit alpdoy tik turganida quyoshni ham o‘zining zabardast gavdasi bilan to‘sib qo‘ya olishida, butun vujudida kuch va g‘ayrat olovday lovullab turishida, so‘zi va qarashlarida, qilayotgan mehnatida keskir qilichday irodaning kuchi yaqqol sezib turishida. Shoir o‘z qahramoniga bergan barcha ta’riflarini jamlab, uni Sharqning buyuk afsonaviy qahramoni “Rustam kabi zo‘r edi” deydi. Mana, Baxtiyorning chin go‘zalligi nimada!

Biroq shunday pahlavon yigit zamonasi zayli bilan “xor edi, kambag‘al, nochor edi”. Mana shu adolatsizlik, hayotning shu “teskariligi” tufayli ham uni o‘zgartirish, Baxtiyordek aslida baxt uchun tug‘ilgan yigitlar va Oyguldek oy qizlarni chinakam baxtiyor yashashiga to‘sqinlik qiladigan yovuz kuchlaiga qarshi kurashish lozim edi. Qahramonlarimiz Oygul bilan Baxtiyor nafaqat o‘zlarining, balki butun xalqning ozodlik va hurlik sari harakat qilishida rahnamolik ko‘rsatadilar hamda shu yorug‘ niyatlariga yetishadilar. Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” dostonini yaratish jarayonida orttirgan tajribalari uning keyinchalik bitgan “Zaynab va Omon”, “Semurg‘”, “Roksananing ko‘z yoshlari” singari doston va balladalarida juda qo‘l keldi. Shoir bu asarlarida ham bir-biriga o‘xshamaydigan, turli xarakter va taqdir egalari bo‘lgan inson qiyofalarini jonlantiradi.

Maqsud Shayxzoda ham hamid Olimjon kab, aynan xalq tomonidan berilgan sifat — “Iskandar Zulqarnayn”, ya’ni shoxli Iskandar haqidagi rivoyatni o‘rganib, uni g‘oyaviy va badiiy jihatdan boyitib she’riy doston yaratadi.

Ertak janri deb qaralib kelinayotgan ertaklarimizdan biri bu Antuan De Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” ertagidir. Bu ertak Antuanning eng kichik

asarlaridan biri bo'lsada, unda adibning inson hayotining ma'nosi va mazmuni haqidagi dardlari va falsafiy mushohadalari, insonlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik, hamdardlik va o'zaro hurmat munosabatlar, yovuzlik va yomonlikka qarshi kurash g'oyalari aks ettirilgan. Adibning kasbi uchuvchilik ekanini bilasiz. Asarda tasvirlanishicha navbatdagi parvozlarning birida uning samolyati buzilib, kimsasiz Sahroyi Kabirga qo'nishga majbur bo'ldi. Huvullab yotgan sahroda, tong saharda uning tepasida bir g'aroyib bola paydo bo'ldi. Keyinroq ma'lum bo'lishicha, bu tillarang sochli, qo'ng'iroq tovushli bolajon mittigina olis sayyorada bir o'zi yashar, bir yil muqaddam sayyoralararo sayohatga chiqib, nihoyat yer sayyorasiga kelib qolgan edi. U uchuvchi amakiga bir-biridan qiziq savollar berishdan, xuddi katta odamlardek u bilan tortishishdan charchamasdi.

6-sinf darsligidan ma'lumot

Janni Rodari ertaklari haqida

Ertaklar - xayolot mahsuli. Deyarli barcha ertaklardagi umumiy jihatshundaki, ushbu janrga mansub asar qahramonlari og'ir vaziyatga tushibqolganlarida. chigal muammoga duch kelganlarida ularga qayerdandirmadad yetib keladi. J.Rodarining "Hurishni eplolmagan kuchukcha" va "Shahzoda Plombir" ertaklari ham ana shunday voqealar zaminiga qurilgan. Avvalo. "Hurishni eplolmagan kuchukcha" ertagiga to'xtalaylik. Bu ertak zamirida ham chigal muammoni qanday hal etish masalasiko'ndalang bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki. Janni Rodari "**Uchtadanoxiri bor ertaklar**" turkumi bilan jahon ertakchiligida yangi bir usulniyaratdi. Bu yangilik shundan iborat ediki, ularda voqealar yechimi uch xilyakun topadi. Bunda har bir yakun o'zining boshqasidan tubdan farqqiladigan mazmun-mohiyatiga ega bo'ladi. Ushbu turkumga kirgan "*Sehrlinog'ora*", "*Ayyor Buratino*", "*Sahrodagi uy*", "*Milanda yoqqan shlyapayomg'iri*", "*Rinaldoning sarguzashtlari*" kabi o'quvchini o'ta qiziqtiruvchiertaklarning barchasi uch xil yakun topadi. "Hurishni eplolmagan kuchukcha" ham shu turkumga mansubdir. Ertakda tasvirlanishicha, bir kuchukchaaslida hurishi lozimligini eshitgani holda. Uning qanday bo'lishini tssvvur qila olmaydi. Qolaversa. o'zining qaysi zotga

mansubligi, nima bilan shug'ullanishi lozimligini uzoq vaqt anglay olmay sarson bo'ladi. Kimdir unga "Kuchuk degani huradi-ku" deb ta'na qilganda. yordam so'rab xo'rozga,kakkuga, sigirga murojaat qiladi Biroq ular o'z tabiatlariga ko'ra nimagaqodir bo'lsalar, kuchukchaga shuni o'rgatadilar: kuchukcha ularyordamidaxo'rozday qichqirishni, kakkuday sayrashni, sigirday mo'rashni o'rganib oladi.O'zicha bu hunarlar orqali mashhurlik darajasini egallayman, deb xomxayolgaberiladi. Bir dehqon qo'liga tushganda esa. uning umuman hurmasligievaziga bo'yniga zanjir osiladi, har kungi nasibasi bir parcha suyak bo'ladi.Endi bir savol ustida o'ylab ko'raylik: kakkudek sayrashni, xo'rozdekqichqirishni, sigirdek mo'rashni tinimsiz mashq qila-qila zo'rg'a o'rgangankuchukchadagi bu o'zgarishning, hayajonning boisi ne? Nima uchun ubirdaniga hura ketadi? Hamma gap shundaki. yozuvchi mana shu mittikuchukcha taqdirida odamzodga xos bo'lgan muhim va abadiy muammolardanbiriga javob izlagan. Ya'ni, dunyodagi har bir mavjudot, ayniq-sa,inson, avvalo, o'zini, o'zligini tanimaguncha, kimning avlodi ekani, asosiyvazifasi nimadan iborat ekanini anglamagunga qadar hayotda o'z o'rinihech qachon topa olmaydi. Bunday kimsalarning o'z galar kulgisi vamaaxiga duchor bo'lishi aniqdir.

1.2.Masal janrini darsliklarda o'rganilishi

Mustaqillik yillarida jamiyatimizda yuz berayotgan o'zgarishlar xalqimizning moddiy va ma'naviy saviyasini oshirish maqsadida olib borilayotgan islohatlar, yoshlarning intellektual qobiliyatlarini yuksaltirishga qaratilgan sa'y-harakatlar asta-sekin o'z samarasini bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida shunday fikrlarni aytib o'tadi: "Shuni unitmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishga bog'liq"¹² shuning uchun ham avvalambor yosh pedagoglarning ta'lim sohasini yanada oshirish uchun o'quvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirib bormog' lozim bunda darsliklarni ham xizmati katta. Bugungi kunimizning talablariga javob beradigan darsliklarni ishlab chiqmoqligimiz lozim.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek "... maqol – matallar bejiz paydo bo'lmagan, ular ham ma'lum haqiqatning ifodasi". Bugungi kunimizni matal va masalsiz tasavvir qilib bo'lmaydi. Nutqimizni tasirchan bo'lishida bu janrlarning roli katta.

Masal (arab. — namuna, misol) — didaktik adabiyot janri. Ta'limiy harakterdagi, aksariyat kichik she'riy, ba'zan nasriy shakldagi asar. Masalda insonga xos xususiyatlar, jamiyatga xos ijtimoiy hodisalar, munosabatlar qushlar, hayvonlar orasidagi munosabatlar va tabiat hodisalari vositasida aks ettiriladi. Mazmuni majoz asosiga quriladi, komiklikning va kinoyaning, ijtimoiy tanqid motivining ustunligi masalga hajviy ruh bag'ishlaydi. Masalning hikoya qismi hayvonlar haqidagi ertaklar, novella yoki latifalarda yaqin bo'lib, xotimasi, ta'limiy xulosasi maqol, hikmatli so'z va iboralar tarzida bo'ladi. Masal materiallari aksariyat ertak, majoz, novella, latifa va boshqalarda ham qo'llanishi mumkin. Ramzli hikoyadan farqli ravishda masalning o'z an'anaviy obrazlar va motivlar doirasi mavjud bo'ladi (hayvonlar, o'simliklar, qushlar, muayyan tizimdagi odamlar va h.k.). Masal janri unsurlari juda qadimdan ma'lum. Uning namunalari "Kalila va Dimna" (Panchatantra) tarkibida uchraydi. Masallar

¹² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008, 61-bet.

Farididdin Attor, Rumi, Navoiy asarlarida tamsil uchun ishlatilgan. Gulxaniy “Zarbulmasal” asarida masaldan mohirlik bilan foydalangan. Qadadimgi yunon adabiyotida Ezop (mil. 6—5-a.lar), Rim adabiyotida Fedr (mil. av. 1-a.), fransuz adabiyotida Lafonten (17-a.), rus adabiyotida Krilov bu janrning yetuk namoyandalari sifatida shuhrat qozonganlar. Rus adabiyotida D. Bedniy, S. Marshak, S. Mixalikov masalning ajoyib namunalarini yaratdilar. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida S. Abduqahhor, O. Qo‘chqorbekov, Ya. Qurbonov va b. masal janrini rivojlantirdilar.

“Masal — majoziy xarakterdagi qisqa hikoyacha bo‘lib, nasriy yoki she‘riy shakldayoziladi. Uning asosiy qahramonlari turli hayvonlar, narsa-buyumlardan iboratdir. Bular ramziy-majoziy ma‘noda qo‘lanilib, insonlar fe‘l-atvoridagi turli xususiyatlarga ishora sifatida keltiriladi. Masalning asosiy jihati shuki, u to‘liq ma‘noda tarbiyaviy maqsadga yo‘naltiriladi.”¹³ Kichkintoy tarbiyasi uchun juda muhim va o‘ta mas‘uliyatli ishlardan hisoblanadi. Buning uchun bolalarni o‘z tuyg‘u va o‘y-xayollari dunyosiga olib kirish lozim. Bu yo‘lda ota-onaga, buvi-boboga, tarbiyachiga masal juda qo‘l keladi. Masal bola aqlining rivojiga, qiziqishiga imkoniyatlar ochib beradi. Ular yordamida bolalarning go‘daklik chog‘laridanoq adolatparvarlik, do‘stlik, o‘rtoqlik tuyg‘ularining shakllanishi, tabiatga, hayvonot olamiga mehr-muhabbatlarining oshishi uchun keng yo‘l ochiladi. Bolalar har bir masaldagi yaxshi-yomonni, gunoh-savobni bilib, mag‘zini chaqib, tushunib o‘sadilar. Bu esa, ularning kelajakda oqko‘ngil, mehnatkash, ota-onaga, ona-Vatanga, hayvonot olamiga muhabbatli bo‘lishlari uchun ko‘prik vositasini ado etadi. Masal eshitib, tinglab o‘sgan har bir inson kelajakda, albatta, o‘ylab, chamalab, aql bilan ish ko‘radigan, qissadan hissa chiqaradigan bo‘ladi. Masallar ko‘proq hayvonlar, jonivorlar, parranda-yu darrandalar, o‘t-o‘lanlar misolida bo‘ladi. Vaqti kelganda bular ustidan kulinadi, xulosalar chiqariladi.

¹³Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). II qism. – T.: Sharq, 2011-yil, 107-108-betlar.

Masallar, og‘zaki, yozmada nasr va nazmda bo‘ladi. Masalda ko‘pincha axloqiy-ta’limiy fikr va ma’nolar ifodalangan bo‘ladi. Xalq og‘zaki ijodining bu janri ham alla-qo‘shiq, topishmoq, maqol, ertak kabi insoniyatga xizmat qiladi, o‘tib-ulg‘ayib, komil inson bo‘lish uchun yordam beradi. Zero, insonni hayvondan ajratadigan sifatlardan birinchisi aql, odob, tarbiya, so‘zlash quvvati va tildir. Inson aqli, zehni bilan yaxshi va yomonni, foyda va zararni ajrata oladi. Aql — inson rohatining madoridir. Bir donishmand „Aqling bilan qara, ko‘z xoindir, qalbing bilan eshit, quloq yolg‘onchidir“, degan ekan. Inson bir ishga kirishar ekan, eng avval shu ishni aql kabi adolat o‘lchovida o‘lchab, keltiradigan foyda yoki zararini o‘ylab, so‘ngra shu ishga harakat qilishi lozim. O‘zi uncha tushunmagan ish haqida uni yaxshi tushunadigan mutaxassis maslahatini olish tavsiya etiladi. Go‘zal xislatlar komillikning bir nishonasidir. Go‘zal axloq ham aqlning kamolga erishganidan dalolat beradi. Bir majlisda hech kimga so‘z bermay, ezmalik qilib so‘zlay bermaslik, johil va nodonning so‘zlariga sukut bilan javob berishlik inson uchun g‘olibiyat va sadoqat bo‘lib, buning aksi esa pushaymonlik va tubanlikdir. Hayotda beaql, o‘ylamay, o‘ziga o‘zi xulosa chiqarmay yashaydigan odamlar ham bor. Ayniqsa, do‘st-o‘rtoq tanlashda tag-tubini so‘rab-surishtirmay, kasb-korini bilmay, fe’latvorini o‘rganmay turib do‘st bo‘ladiganlar, albatta, quyidagi rivoyatda aks ettirilganidek, o‘zini o‘zi nobud qiladi, halok bo‘ladi: Bir bog‘bonning tog‘ yaqinida g‘oyatda dilkusho bog‘i bor edi. Dehqon o‘sha bog‘da umr kechirardi. Bir kuni zerikib bog‘dan tashqariga chiqdi, tog‘ etaklarini tomosha qilib yurdi, shu vaqt yuksak tog‘lardan quyiga tushgan bir ayiqqa duch keldi. Ular bir-birlariga ulfat bo‘ldilar. Ayiq o‘sha dehqonning suhbatiga ko‘ngil berdi, u bilan birga bog‘ga keldi, shirin mevalardan yeb do‘stligi mustahkam bo‘ldi. Mabodo dehqon soya-salqin joyda dam olib uxlab qolsa, ayiq uning yonida o‘tirib, pashshalarni qo‘rirdi. Bir kun bog‘bon uxlab, ayiq pashshalarni qo‘rib o‘tirgan edi, pashshalar dehqonning yuz-ko‘ziga hujum qilishdan to‘xtamadilar. Bir tarafdin quvlasa, ikkinchi tomondan yopirildi. Ayiq ularning hammasini birdaniga o‘ldirish fikriga tushdi. Pashshalar dehqonning yuz-ko‘ziga yopirilib qo‘ngan vaqtni poylab

turib, dehqonning boshiga xarsang tosh bilan bir tushirdi, dehqonning boshi majaqlanib ketdi. Pashshalarga ziyon yetmadi, ular uchib ketdilar. Hissa: Nodonning do'stligi ham ayiqning do'stligiga o'xshash bo'ladi. Har kim nodonni o'ziga do'st, ulfat deb hisoblasa, dehqonning holiga tushishi mumkin.

Bayt:

Al'amon, yuz al'amon, nojinslardan al'amon,

Yaxshi ulfatlar bilan bo'lg'il hamisha, ey javon!

Inson oddiy, sodda, o'z ishiga pishiq, puxta bo'lsa, katta-yu kichiklarga, jonivorlarga mehribon, rahmdil bo'lsa, uning hayotda obro'-e'tibori olamcha bo'ladi. Aksincha, takabbur bo'lsa, odamlarni ranjitsa, dillariga ozor beradigan bo'lsa, jonivorlarga rahm-shafqat qilmasa, tez orada jazosini tortadi. Xalq bunday takabbur, faqat o'z manfaatini o'ylab ish ko'radiganlarni xush ko'rmaydi. Bunga yorqin misol „Kalila va Dimna“dagi mana bu masaldir: „Bir kuni Qoraquloq o'rmon chetiga chiqib o'tirgan edi, bir sichqonning jadallik bilan daraxt tomirini kemirayotganini ko'rib qoldi. Daraxt tilga kirib unga dedi: — Ey dilozor va sitamkor! Nima uchun jonim rishtalarini qirqyapsan? Sichqon uning nola-yu zoriga e'tibor bermay, o'z ishini davom ettiraverdi. Nogoh bir burchakdan bir ilon chiqib, sichqonga hamla qildi va bir damda yutib yubordi. Qoraquloq bu voqeadan „Dilozorning jazosi ozor ekan“, degan xulosa chiqarib oldi. Shu vaqt bir tarafdan tipratikan kelib, ilonning dumidan tishladi-yu, boshini ichiga tortib, g'ujanak bo'lib oldi. Ilon jahl bilan unga o'zini ura boshlagan edi, a'zoyi badanini tikanlar pora-pora qilib yubordi. Ilon o'sha zahoti o'ldi. Qoraquloq bundan ibrat darsi oldi. Ilon o'lgach, tipratikan boshini chiqarib, uning yaxshi-yaxshi joyidan tanlab yedi. Qorni to'ygach, daraxt soyasida koptokdek bo'lib yumalab, huzur qilib yotgan edi, nogoh bir och tulki kelib qoldi. tipratikanning nayzalaridan qo'rqib, uni hiyla bilan o'ldirmoqchi bo'ldi. U tipratikanni ag'angatib qorniga yozildi. tipratikan yomg'ir yog'yapti shekilli, deb o'ylab, boshini chiqargan ham ediki, tulki bir hamla bilan uni cho'rt uzdi, bo'shashib, qorni ochilib qolgan tipratikanni ishtaha bilan yeb oldi. Shu vaqt bo'riga o'xshagan vahshiy bir it kelib, tulkini turgan yerida bo'g'ib,

uning go'shti bilan ochligini qondirdi. Qoraquloq bu ajoyibotlarni ko'rib, hayron qolib yotar edi. It endi dam olishga hozirlik ko'rayotganda bir qoplon kelib, uning siynasidan oldi. Qoplon hali itni tugatmagan ham edi, ovchi kelib, bir o'q bilan uni jo-bajo qildi. Qoplonning joni hali uzilmagan edi, u yerdan bir otliq o'tib qoldi. Unga qoplonning terisi yoqib qolib, ovchi bilan urisha boshladi. Qilich solib, ovchining boshini tanidan judo qildi va qoplonning terisini olib yo'lga tushdi. U yuz qadam ham yurmagan edi, oti qoqilib, yerga yiqildi. Gardani sinib, u shu on halok bo'ldi". Bolalarga shunday ta'lim-tarbiya berish kerakki, ular o'sib-ulg'ayganlaridan keyin aslo kibr-havoga berilmasliklari, maqtanchoq bo'lmasliklari lozim. Ochko'zlik, tamagirlik, maqtanchoqlik, o'zini katta tutish yaramas odatlardan hisoblanadi. Kimki shu yo'ldan borsa, albatta, u el-yurt o'rtasida obro'-e'tiborini yo'qotadi, xorlig-u zorlik bilan halok bo'ladi. Hammaga ma'lumki, chumoli juda mehnatkash bo'ladi. U kechasi-yu kunduzi harakatda bo'ladi, ishlaydi. Uning o'zgalar bilan suhbatlashishga, dam olib o'tirishga vaqti yo'q. U hamisha shoshiladi. "Qish g'amini yozda ye" maqoliga qat'iy amal qiladigan chumoli o'ziga oziq-ovqat qidiradi, topadi, uyiga tashiydi, sudraydi. Chumoli ertani o'ylaydi, ovqat yig'adi. Bu bilan o'z uyida bolalarining, keksalarning, yordamga muhtoj bemorlarning qornini to'ydiradi. Ari esa uning teskarisi. U ochko'z, maqtanchoq, surbet. Hoziri-yu huzuri qabilida ish ko'radiganlardan. Kunlardan bir kuni arining ko'zi zo'r mashaqqat bilan iniga don sudrab borayotgan chumoliga tushib qoladi. Yengiltak, maqtanchoq, tamagir, surbet ari: — Ey, chumoli! O'zingni bu qadar azobga qo'yishingdan nima foyda? Bu ishni ne sababdan ixtiyor qilding? Mening hayotim, yemish-ichishimga qarab ish tutsang bo'lmaydimi? Podsholar dasturxonidagi har qanday taom mensiz yeyilmaydi. Shamolni minib uchaman, istagan yerga qo'naman, nayzamni yovning jigariga sanchaman. Xullas, nimani ko'nglim tilasa shuni yeyman, — dedi. Yuqorida eslatib o'tganimizdek, bunday maqtanchoq, bosar-tusarini bilmay qolganlar, odatda, hayotda qoqiladilar. Yo halok bo'ladilar, yoki xalq orasida obro'-e'tiborlarini yo'qotib yolg'izlanib qoladilar. Maqtanchoq, o'ziga ortiqcha erk

bergan, chumolining ustidan kulgan ari bir parvoz bilan to'g'ri qassobning do'konidagi mixga osib qo'yilgan go'shtga qo'ndi. Qassob qo'lida pichog'i bilan uni mo'ljalga oldi va nimtalab tashladi. Shu yerda poylab turgan chumolilar esa uni sudrab ketdilar. Bolalarni shunday tarbiyalash lozimki, ular kelajakda sog'lom fikrli, halol, pok inson bo'lib o'ssinlar. Qachonki, bola ishlamay, peshana teri to'kmay topilgan narsadan hazar qiladigan, o'zgalar mol-mulkiga ko'z olaytirmaydigan bo'lib voyaga yetsa, kelajakda haqiqiy inson bo'ladi. Demoqchimizki, bola mehnat qilib, mehnatga ko'maklashib o'ssin. Axir mehnat insonga baxt-saodat keltiradi. Yalqovlik va ishsizlik esa falokat girdobiga yetaklaydi. Bir masalda baliqchi tutgan baliqlarini uyiga olib kelar ekan, bir zolim yo'lto'sar uning baliqlarini tortib oladi va uradi. Baliqchi bunday duo qildi: „Yo rabbiy, meni zaif, uni quvvatli qilib yaratdingki, u menga zulm qildi. Maxluqotingdan birini unga ro'para qil, toki butun olam undan ibrat olsun. Yo rabbiy, sen har narsaga qodirsan!“ Zolim baliqlarni pishirib yeyayotgan paytda tomog'iga qiltanoq tiqildi. Nafas ololmay qoldi. Tabiblarga yugurib davo topolmadi. Kechga yaqin Allohga yolvordi. Zolim tushida “Falon odamning haqini berasan, shundan so'ng xastalikdan qutulasan” degan nidoni eshitdi. Uyg'onar-uyg'onmas, shoshilib baliqchini qidirib topdi. Unga ming dirham berib halollashdi. Allohning izmi bilan xastalikdan qutuldi. Bayt: Mehnat ila hal bo'ladir har mushkul, Komi dil mehnat ila bug'doy hosil. Jamiki jonzot o'ziga do'st, o'rtoq, hamkor qidiradi. Do'stga butun ixtiyorini beradi, sirini, yurak dardini aytadi. Do'stga ishonib, unga suyanib, undan ko'mak olib yashaydi. Kerak bo'lsa, do'sti uchun jonini beradi. Do'stlikning qoidasi, sharti shunday. Arslon bilan kuchuk voqeasiga bag'ishlangan bir asarda do'stga sadoqat, vafodorlik nafaqat odamlar o'rtasida, balki hayvonlar orasida ham borligini ko'ramiz. London hayvonot bog'ida tomoshabinlardan pul yoki yirtqichlar uchun yemish sifatida it, mushuk olinar edi. Bir odam hayvonlarni ko'rmoqchi bo'ldi va ko'chadan bitta kuchukchani tutib keltirdi. Haligi odamni tomoshaga kirgizishdi, kuchugini esa yemish o'rnida arslonga tashlashdi. Kuchukcha dumini qisganicha qafas

burchagiga borib suykaldi. Arslon unga yaqinlashib, hidlab ko'rdi. Kuchukcha chalqancha yotib panjasini ko'tardi va dumini likillatdi. Arslon unga panjasini qo'yib, ag'dardi. Kuchukcha sakrab turib, arslonning oldida orqa oyoqlari bilan tikka turdi. Arslon kuchukka tikilib qoldi, kallasini o'girib, atrofga alangladi va o'ljasiga tegmadi. Xo'jayin qafasga go'sht tashlagan edi, arslon bir bo'lagini uzib olib, kuchukchaga berdi. Kechqurun arslon uxlash uchun yotganda kuchukcha uning yoniga cho'zilib, kallasini panjasiga qo'ydi. Shundan buyon kuchukcha arslon bilan bitta qafasda yashay boshladi, arslon unga tegmadi, yemishini yeb, kuchukcha bilan birga uxlar, birga o'ynar edi. Bir kuni bir janob tomoshaxonaga kelib, kuchukchasini tanib qoldi, u kuchukcha o'ziniki ekanini aytib, xo'jayindan qaytarib berishni so'radi. Xo'jayin qaytarmoqchi bo'ldi, ammo kuchukchani arslon qafasdan chiqarmadi. Shunday qilib, yil bo'yi arslon bilan kuchukcha bir qafasda yashadi. Keyingi yili kuchukcha kasal bo'lib, o'lib qoldi. Arslon yemishga ham qaramas, kuchukchaga panjasini qo'ygancha hidlagani-hidlagan edi. Arslon kuchukchani o'lganini bildi-yu, junlarini hurpaytirib sakradi, dumi bilan o'zini savalay ketdi, qafas devoriga urildi va polni, eshik zulfini g'ajiy boshladi. Arslon uzukun o'zini qafasga urib, na'ra tortdi, so'ng jonsiz kuchukcha yoniga cho'zilib, jimib qoldi. Xo'jayin arslon dardini unutar deya qafasga boshqa kuchukchani qo'yib yubordi, ammo arslon uni shu zahoti tilka-pora qilib tashladi. Keyin o'lik kuchukchani panjalari bilan quchoqlaganicha besh kun qimirlamay yotdi-da, oltinchi kuni u ham o'lib qoldi. Bu hikoyada arslon haqiqiy do'stlik yo'lini tutdi, chin do'stlik namunasini ko'rsatdi.

Bu janr yevropada ham yuqori chuqqiga kotarilgan buni ular "Ezob tilida so'zlash" yoki "Ezopona til" deb atashgan.

"Rivoyatlarga ko'ra, miloddan avvalgi VI asrlarda Yunonistonda quldorlik tuzumi hukm surgan paytda qullar orasidan yetishib chiqqan nihoyatda aqlli, ammo o'ta badbashara, xunuk bir donishmand bo'lib uni Ezop deb atashgan ekan. Uning asli kelib chiqishi o'sha davrlardagi Frigiya mamlakatidan bo'lib, urushlar natijasida qul qilib olinib, Yunonistonga kelib qolgan. Aql-u farosati, topqirligi

bilan o‘z xo‘jayinlarining mushkullarini oson qilib, hurmat va e‘tibor qozongan. Hatto shaharlarni bosqinlardan asrab, podshohlarni qirg‘in-barot urushlardan to‘xtatib qolgan. Oxir-oqibat o‘zini qullikdan xalos etib, Lidiya shohi Krez saroyida xizmat qilgan, so‘ng Vavilon shohi Likurg saltanatida xazinabon darajasiga ko‘tarilgan. Keyinroq, haqgo‘ylik adolatparastligi, kinoyali achchiq tili uchun ko‘rolmagan, hasadgo‘y dushmanlari uni Delfa shahrida tog‘ qoyasidan otib yuborib, o‘ldirganlar”.¹⁴

Ezop hayoti haqidagi ma‘lumotlar o‘sha davrdagi va undan keyingi asrlardagi solnomachilar tomonidan yozib qoldirilgan rivoyatlar, ibratli hikoyatlar orqali yetib kelgan. Uning 500 ga yaqin masallari qadim davrlardayoq jamlanib, “Ezop masallari” nomi ostida kitob qilingan va donishmandlik o‘g‘itlari sifatida butun dunyoga tarqalgan. “Ulug‘ masalchi”ning o‘zi haqida rivoyatlar ham juda ibratomuz. Masalan, ulaming birida hikoya qilinishicha, Ezopning xo‘jayini safarga otlar ekan, o‘z qullariga yuklarni bo‘lib olib, ko‘tarib ketishlari lozimligini buyuradi. Ezop ularning oldiga kelib, o‘ziga yengilroq yuk berishlarini iltimos qilganida, qullar uning o‘zi tanlab olishiga ruxsat beradilar. Ezop borib, to‘rt kishi zo‘rg‘a ko‘taradigan non solingan qutini tanlaydi. Atrofidagilar barchasi undan kulib, yengil narsa so‘rab, eng og‘ir yukni tanlagani uchun ahmoq deya masxara qiladilar.

Xo‘jayini uning og‘ir yukka o‘zini urganini ko‘rib, Ezopni maqtab qo‘yadi. Ushanda Ezop olis safarga ketayotganlarini sezib, uzoqni ko‘zlab ish tutgan edi.

Anchagina yo‘lni bosib, kun peshinga yetganda, barcha to‘xtab, ovqatlanishga o‘tiradilar. Shunda Ezop ko‘tarib kelgan qutidan barchaga non ulashib, yukini ikki barobar yengillashtiradi. Kechga borib, yana yo‘lda ovqatga unnaganlarida, qutining ichidagi qolgan nonlarni ham ulashib, yukidan tamomila xoli bo‘lib oladi-yu boshqa qullar manzilgacha olgan yukini qiynalib ko‘tarishda davom etsa, Ezop

¹⁴Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). II qism. – T.: Sharq, 2011-yil, 107-108-betlar.

qup-quruq qutini yelkalab, oldinda o'ynoqlab, chopib boradi. Yoki rivoyat aytuvchilar yana shunday ibratli voqeani hikoya qiladilar:

Ezop masallari va ularning tarbiyaviy ahamiyati

Yovvoyi echkilar bilan cho'pan

Cho'pon echkilarini yaylovga qo'yib yubordi. Bir payt qarasa, echkilar yovvoyi echkilar bilan o'tlashib yuribdi: xursand bo'ldi-yu kech kirgach, hammasini o'zining g'origa qamadi. Ertasiga havo buzuqligi tufayli echkilarni odatdagidek yaylovga olib chiqolmadi: g'ordayoq boqishiga to'g'ri keldi. Cho'pon o'zining echkilariga nomigagina — o'lmagunday yem solgani holda, qo'lga o'rgatib olish niyatida yovvoyi echkilarga mo'l-ko'l qilib to'kdi. Ertasi, havo yurishib ketgach, echkilar tog'ga qarab ura qochdilar. Cho'pon ularni yaxshilikni bilmaydigan nonko'rlar, deya koyishga tushdi: "Axir men sizlarni o'zimning echkilarimdan-da yaxshiroq boqmadimmi?" Yovvoyi echkilar aytdilar: "Shuning uchun ham sendan naribroq yurishimiz ma'qul ko'rindi-da. Bizlar kechagina senga yo'liqqandik, sen esa bizni o'zingning eski echkilaringdan-da yaxshiroq boqding. Demak, ertaga yana yangilar kelib qo'shilsa, unda ularni bizlardan afzalroq ko'rarkansan-da?"

Alqissa, yangi do'stlarni eskilardan afzal tutuvchilar bilan do'stlashishga shoshilmang, zero yana yangi do'stlar orttirganda siz ham eskilardan bo'lib qolasiz.

Ezopning bu masalidan shunday g'oya kelib chiqadi: Do'stlik bilan sadoqat tushunchalari doimo yonmayon tarzda olib boriladi. Inson hayoti davomida juda ko'p qaltis vaziyatlarga tushish, turli sinovlarga duch kelishi mumkin. Ana shunday sharoitda faqat o'z manfaatini o'ylab, sizni yolg'iz tashlab ketadigan yoki boshqa odamlarni do'st tutib ketadiganlardan naribroq bo'lgan ma'qul.

Do'stga sadoqat, vafodorlik haqida ulug' bobokalonimiz hazrati Alisher Navoiy ham "Mahbub-ul qulub, ya'ni "qalblarning sevgani" nomli ma'rifiy axloqiy asarlarida shunday fikrni aytadi:

Do'st uldirki, o'ziga ravo ko'rmagan narsani do'stga ham ravo ko'rmaydi. O'zi do'sti uchun o'limga tayyor bo'lsa ham, ammo do'stni bu ishda sherik qilmaydi.

KIYIK BILAN TOKZOR

Ovchilar ta'qibidan qochgan kiyik tokzorga yashirindi. Ovchilar payqamay o'tib ketishgach, endi xavfdan qutuldim, deb xayolladi-yu tok barglarini uzib-uzib yeyishga tutindi. Ittifoqo shu payt ortiga o'girilgan ovchi kiyikni payqab qoldi: darhol o'q uzib, jonivorni yarador qildi. O'limi yaqinlashganini sezgan kiyik afsusnadamatda ingrandi: "Qilmish - qidirmish: toki meni qutqargandi, men esa uni nobud qilishga qasdlandim".

Bu masalda Ezop kimki o'ziga yaxshilik qilganlaiga yomonlik sog'insa, u albatta Xudoning qahriga yo'liqqay.

Ushbu hayotiy lavha yaxshilikka hamisha yaxshilik bilan javob qaytarishga undaydi. E'tibor qiling-a, tokzor kiyikni o'limdan asrab qoldi. Kiyik buning uchun bir umr minnatdor bo'lib, imkoni yetganicha tokzorni asrashi, uni har kim payhon qilmasligi uchun jon kuydirishi lozim edi. Ammo, u aksincha ish tutib, xavfdan qutuldim, ya'ni jonim omon qoldi, endi qornimni o'ylashim kerak, deb hozirgina uni yashirgan tok barglarini mo'tashga tushadi. Bu na Xudoga va na bandasiga xush keladigan illat. Shu bois ham kiyik o'sha zahotiyoyoq jazolanadi. Bu bilan Ezop yaxshilikka yomonlik qilish muqarrar jazo bilan yakunlanadi, deyish bilan bir qatorda, insonlarni nafs balosidan ham asranishga, hamma narsaga bir paytning o'zida erishaman deb, ochko'zlik qilmaslikka da'vat etadi. Bunday tushuncha Sharqda ham keng tarqalgan. Jumladan, bizning zaminimizdan yetishib chiqqan ko'plab allomalar, adib va shoirlarimizning asarlarida shunday g'oya ilgari suriladi. Masalan, Ahmd Yassaviyning "Hikmatlar" asarida nafsning yomon oqibatlariga olib kelishi haqida bir qancha fikrlari bor.

Nafs yo'lig'a kirgan kishi rasvo bo'lur,
Yo'ldan ozib, toyib, to'zib gumroh bo'lur,

Yotsa qovnsa shayton bila hamroh bo‘lur,
Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey badkirdor.

Shuning uchun ham insoniy fazilat yoki illatlarning millati, hududiy chegarasi yo‘q. Inson zoti yaralibdiki, yaxshilik, ezgulik bilan birga yomonlik, tubanlik yashab keladi. Har bir inson, avvalo yaxshilik nima-yu, yomonlik nima farqiga borishi, o‘z ongi, aql-u farosati bilan anglab olishi kerak.

BO‘RI BILAN LAYLAK

Bo‘rining bo‘g‘ziga suyak tiqilib qoldi-yujoni ko‘ziga ko‘rinib, yordamistab yugurgilab qoldi. Baxtini qarangki, laylakka duch keldi: suyaknichiqarib tashlasang, mukofotlayman, deya va’dalar berib yordam so‘radi. Laylak tumshug‘i-yu boshini bo‘rining bo‘g‘zigacha tiqib, arang suyaknichiqarib oldi-da, va‘da qilingan mukofotni talab qildi. Bo‘ri bunga javobandedi: “Ha, azizim, bo‘rining og‘zidan boshing omon chiqqani kammi, yana mukofot deysan-a?!”

Qissadan hissa shuki, badfel kishilar yomonlik qilmaganlarining o‘ziniyoq yaxshilik qilganga yo‘yadilar.

Bu masalni qay bir ma’noda avvalgisining davomi ham deyish mumkin. Chunki yaxshilik qilib, suyakni olib tashlagan laylak mukofot olish o‘rniga, bo‘rining changalida qolib ketmaganiga shukur qilishi lozimligi hikoya qilinarkan, yaxshilikni ham uning qadriga yetgan odamga qilish kerak, degan fikr ilgari suriladi. Yomon fe’lik, baxil odam, unga har qancha yaxshilik qilmang, og‘irini yengil qilaman, yordam beraman, deb o‘ylamang, baribir u Sizing yaxshiligingizni bilmaydi. Bil’aks, o‘zining yomonlik qilmaganini yaxshilikka yo‘yadi. Bu bilan o‘z tubanligini yana bir marta namoyish etadi. Ezop masallaridan insonning turli vaziyatlarda o‘zini qanday tutishi lozimligi haqidagi maslahatlarni anglash mumkin. Hayotda har xil sinovlar ko‘p bo‘ladi. Inson doim ham muvaffaqiyat qozonib, shod-u xurramlik bilan kun kechiravermaydi. Shodlik, g‘alabalar bilan bir qatorda inson turli g‘am-tashvishlarga, omadsizlik va yo‘qchiliklarga tayyor bo‘lib yurishi, har bir hodisaga hushyor nigoh bilan qarashi lozim. Sabr-u bardoshli bo‘lish, qiyinchilikka chidam, yo‘qchilikka qanoat qila

olgan odam hech qachon kam bo'lmaydi. Aksincha, arzimagan tashvishdan xavotirga tushib, o'zini o'tga -cho'g'ga urgan kishilar yo biror kasallikka chalinadilar yoki yechib bo'lmas chigalliklarga duch keladilar. o'zgaralar oldida obro'-e'tiborlarini yo'qotadilar. Ezopning quyidagi masali ana shunday odamlar haqida.

ESHAK BILAN BAQALAR

Ustiga o'tin ortilgan eshak botqoqdan o'tayotgandi, toyib ketib yiqildi. Eshak o'rnidan turishga harchand urinmasi bo'lmadi: oh-voh qilib faryod cheka boshladi. Botqoqda yashovchi baqalar uning holini ko'rib dedilar: "Birodar, botqoqqa endigina yiqilganing holda shunchalar nola chekasan, bizga o'xshab umring shu yerda o'tganida nima qilarding?!"

Alqissa, ayrim kishilar kichkinagina qiyinchilik oldida ham esankirab, ruhan cho'kib qoladilar, holbuki, boshqalar bundan o'n chandon og'ir mashaqqatlarni-da sabr-la yengadilar.

Xalqimizda "Birni ko'rib shukur qil, birni ko'rib fikr qil" degan maqol bor. Nogahon toyib ketib, yiqilgan eshak, biroz tin olib, kuch to'plab, yana oyoqqa turishi va yo'lida davom etishi mumkin edi. Ammo u mutlaqo chorasiz qolgan kabi ayyuhannos solib, faryod chekadi. Vaholanki, undan ko'ra yuz chandon yomonroq ahvolda, bir umr botqoqda yashayotgan baqalarni ko'rib, o'z holatiga shukur qilishi, ahvolini yaxshilash chorasini ko'rishi lozim edi. U esa sarosimaga tushib nola qiladi. Hayotda bunday holatlar uchrab turadi. Sovuqqonlik bilan muammolar haqida o'ylab ko'rilsa, hammasiga biror tadbir topish mumkin. Muhimi, aqlni ishlatish, qiyinchiliklarga sabrli bo'lishdadir. Gohida qiyinchilikni yengib o'tishdan ko'ra uni aylanib o'tishga yoki hiyla-nayrang ishlatib, o'z maqsadiga erishishga harakat qiluvchi kimsalar bo'ladi. Ular balki ba'zida niyatlariga yetarlar ham. Biroq bu uzoq davom etmaydi. Albatta, biror ishkal bo'lib, barcha harakatlar chippakka chiqadi. Ana shunday toifali odamlarga qarata quyidagi masal aytilgan.

USTIGA TUZ YUKLANGAN ESHAK

Ustiga tuz ortilgan eshak daryo kechuvidan o'tayotib toyib ketib, suvga yiqildi: tuz suvda erib ketib, yuk ancha yengillashdi, eshak benihoya sevindi. Keyingi gal o'sha joydan o'tayotib, eshak: "Suvga yiqilsam yukim yengillaydi, keyin turib ketaveraman", deb o'yladi-da, atayin yiqildi. Ittifoqo, bu gal eshakka yuvg'ich ortilgan edi: yuvg'ich suvni shimib olib, yuki og'irlashib ketgan eshak eplanolmay qoldi-yu suvga cho'kib ketdi.

Alqissa, ayrimlar ishlatgan hiyla-nayrang ularning o'z boshiga yetarkan.

"Og'irning ostidan, yengilning ustidan o'tma", deydi dono xalqimiz. Har qanday qiyinchilikni bardosh bilan yengib o'tishga harakat qilgan odam, albatta, maqsadiga yetadi. Kurashlar bilan amalga oshgan ish qadrli va mustahkam bo'ladi. Ayrim ishyoqmas, havoyi kishilar maqsadlariga tez va oson yetishish uchun turli nayranglar o'ylab topadilar-u, ammo kutilmaganda pand yeb qoladilar. Yengil yo'l bilan qo'lga kirgan narsa barakali ham bo'lmaydi. Hatto masaldagi voqeaga o'xshab, nojoiz makkorlik o'sha odamni halokatga olib kelishi mumkin. "Behuda chiranish belni chiqaradi" degan hikmat ham shunday holatlarni nazarda tutib aytilgan. Bu fikrning yanada yaqqolroq misoli quyidagi masalda tasvirlab berilgan.

BURGUT, ZAG'CHA VA CHO'PON

Yuksak qoyadan shiddat bilan qo'zg'algan burgut suruvdagi qo'zichoqni ildi-yu ketdi. Zag'cha buni kuzatib turgandi, hasaddan ichi kuyib, o'zining ham shunday qilgisi kelib qoldi. Zag'cha jon-jahdi bilan chinqirganicha borib qo'chqorga tashlandi: panjalari qalin junga o'ralashib qoldi-yu, uchishga ham, qochishga ham imkoni bo'lmay qoldi. Uning jon xolatda pitirlayotganini ko'rgan cho'pon gap nimadaligini fahmladi-da, darhol tutib oldi: qanotlarini qirqib, o'zini ermak uchun bolalariga eltdi. Bolalari chuvillashib: "Bu qanday qush?" — deya so'rganlarida, cho'pon aytdi: "Men-ku buning zag'chligini" bilaman-a, biroq uning o'zi o'zini burgut hisoblaydi-da?!"

Alqissa, o'zingdan zo'rroqlar bilan bellashaman, deb chiranganig bilan hech ish chiqara olmaysan, kulgi bo'lganing qoladi.

Har qanday inson o‘z o‘rnini bilishi lozim. Kerak-nokerak narsalarga o‘zini o‘ravirish yaxshilikka olib kelmaydi. Agar zag‘cha burgutdan bir necha barobar kichik ekanini, har qancha chiranganida ham burgut shiddatiga ega bo‘la olmasligini fikr qilganida, o‘zini abgor qilib, kulgili holatga tushmas edi. Ana shunday toifa odamlarga nisbatan donolar “Ko‘rpangga qarab oyoq uzatgin” deya tanbeh beradilar. Darhaqiqat, yoshi ulug‘ yoki martabasi baland kishilar oldida maqtanchoqlik qilish, o‘z imkoniyatlariga to‘g‘ri baho bera olmaslik, ularga noo‘rin xatti-harakatlari bilan o‘zini ko‘rsatmoqchi bo‘lish oxiroqibada shu kimsani bebro‘ qiladi, e‘tiborsiz narsadek chetga chiqib qolishiga sabab bo‘ladi. Ko‘rinadiki, Ezop masallari hayotiyliigi bilan, odamlarning fazilat-yu nuqsonlari, qusur-kamchiliklari, noto‘g‘ri xatti-harakatlarini aniq ko‘rsatib bera olgani, ma‘naviy ibrati bilan hozir ham o‘z ahamiyatini to‘la saqlab kelmoqda. Bundan bir necha ming yillar avval yaratilgan bu majoziy hikoyatlar dunyodagi barcha tillarga tarjima qilinib, shu yo‘sinda ijod qiluvchi davomchilari yetishib chiqishiga omil bo‘ldi. Fransuzlarda J. Lafonten, rus adabiyotida I. Krilov kabi masalchi adiblar Ezop masallarini qayta ishlab, ijodiy boyitib, o‘z davri xususiyatlariga ko‘ra to‘ldirib, rivojlantirdilar. o‘zlari ham ulardan ilhomlanib, yangi masallar yaratdilar. Eramizning birinchi va ikkinchi asrlarida yashab o‘tgan grek masalchilari Fedr, Babriy tom ma‘noda uning davomchilari hisoblanadi. Hatto Fedrning masalchilik rivojidadagi asosiy xizmati shunda ediki, u Ezop masallarini she‘riy yo‘l bilan lotin tiliga tarjima qiladi.

Ko‘hna Sharq adabiyotida ham majoziy shaklda, ya‘ni turli hayvonlar tilidan tarbiyaviy ahamiyatga molik hikoyachalar keltirish tajribasi qadim hind adabiyotining nodir namunalari bo‘lgan “Panchatantra”, “Kalila va Dimna” kabi asarlar tarkibida uchraydi. Bu asarlar ham dunyoning ko‘pgina tillariga tarjima qilinib, shunday yo‘nalishdagi yangi asarlarning yaratilishiga turtki bergan. Masalchilikning eng yaxshi namunalari o‘zbek adabiyotida ham mavjud. Avvalo, aytish o‘rinliki, Ezop masallaridagi hikoyat va hikmatlarga o‘xshagan ibratli maqol va matallar o‘zbek xalqi hayotida, uning kundalik turmushida, so‘zlashuv nutqida

doimiy uchraydigan hodisadir. E'tibor qilgan bo'lsangiz, yuqorida Ezop masallaridan kelib chiqadigan xulosalar aks etgan qator maqollar va hikmatli iboralar ota-bobolarimiz tomonidan azal-azaldan aytib kelinganini anglatuvchi namunalar ham yonma-yon keltirildi. Buning sababi, ta'kidlaganimizdek, ko'tarilgan masala va mavzularning insonlarga birdek xos bo'lgan xususiyatlar ekanligidadir. Shuning uchun ham Sharq, jumladan, o'zbek mutafakkir shoir-u adiblari maxsus "Pandnoma", "Odobnoma" lar yaratib, bu asarlar maktab-madrasalarimizda alohida o'quv qo'llanmasi sifatida xizmat qilgan. Shu o'rinda majoziy shakldagi ibratli hikoyatlarning eng saranamunalari ulug' bobokalonimiz Alisher Navoiy hazratlarining "Xamsa" asaridagi birinchi doston "Hayrat ul-abror" (Yaxshi odamlarning hayratlanishi) da va maxsus shu yo'nalishda "Lison ut-tayr" (Qushlar tili) dostonida uchrashini alohida aytib o'tish lozim. Shu bilan birga XVIII asr oxiri — XIX asr boshlarida yashab o'tgan Muhammad Sharif Gulxaniy ham "Zarbulmasal" nomli asari bilan o'zbek adabiyotida masalchilik rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Ulardan tashqari XX asrga kelib Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Yamin Qurbon, Sami Abduqahhor, Muxtor Xudoyqulov kabi shoirlar ijodida masal janrining yaxshi namunalarini uchraydi.

Gulxaniy "Zarbulmasal" asarini darsliklarda o'rganilishi:

Muhammadsharif Gulxaniy XVIII asr oxiri - XIX asming 20-yillarida Qo'qonda yashab ijod qilgan mashhur masalnavis adib va hassos shoirdir. "Shoir haqida bizning zamonamizgacha yitib kelgan ma'lumotlar orasida eng ishochlisi Fazliy Namangoniy ma'lumotlaridir. U "Majmuayi shoiron" tazkirasida har bir shoir haqida ma'lumot berar ekan, albatta, uning qayirdan ekanini alohida takidlab o'tadi. Tazkirada Gulxaniy haqida so'z borganda uning tug'ilgan joyi "Ko'histon mulki" deb ataydi va o'zining bu fikrini asarning bir necha yerida qayta-qayta takrorlaydi va quydagi baytni keltiradi:

Ko'histondin ermish latoyifshior,

Muqimi dari haziratishahri

Takallum qilur turkiyu forsiy,

Erur she'r maydoninig forsi.

Zi mulki Ko'histon buvad Gulxaniy"¹⁵.

Ujo'shqin fe'lligi va olovqalbligi tufayli o'ziga Gulxaniy taxallusini tanlagan. Keyinchalik she'rlarida Jur'at taxallusini ham qo'laganigi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Bu jur'at ki avval edi gulxaniy,

Erur barcha haz'yon demaklik fani.

Muhammad Sharifning o'ziga Gulxaniy taxallusini olish sababini shoir Fazliy o'z tazkirasida quydagicha izohlagan edi:

Xusho Gulxani shoiri purfan ast,

Chi gulxan, ki zebotar az gulshan ast.

Zi devonxo'iyu otashfani

Taxallus nihoda ba xud Gulxani.

Ma'nosi: Gulxaniy hammanarsani biluvchi shoirdir. U faqat gulxan emas, balki gulshandan ham chiroyliroqdir. Devonafe'lligi, olovtabiatligi, istedodligi, o'tkir fikrliligi tufayli o'ziga Gulxaniy taxallusini quygan.

Bizgacha uning o'zbek va tojik tillaridagi 12 g'azali, Qo'qon xoni Amir Umarxonga bag'ishlangan 1 qasidasi va "Zarbulmasal" asari yetib kelgan. Gulxaniyning hayoti, asosan, Qo'qon va Namanganda kechgan. U tirikchilik vajidan hammomda o't yoquvchi ham bo'lgan, Qo'qon xoni Amir Olimxon navkarlari safida xizmat ham qilgan (1801—1810-yillar). Mustaqil mutolaa yo'li bilan mumtoz adabiyotni o'qib o'rgangan. Olimxon vafotidan keyin taxtga o'tirgan Amir Umarxon (shoir Amiriy) Gulxaniyni saroy shoirlari davrasiga jalb etgan. U ko'proq oddiy insonlarga manzur bo'ladigan she'rlar, hajviy asarlar bitgan.

Gulxaniy ham o'zbek, ham tojik tillarida bimalol qalam tebratganligini Fazliy tabiri bilan aytganda" u takallum qilur turkiyu forsi erur she'r maydonining forsi"(ot chopari). Gulxaniy o'zbek va tojik tillarida yaratgan sh'rlari "angushtam", "Azchashmi man", "omad barun", "ey tuti", "angusht", radfli hamda "Lola

¹⁵Эргашали Шодиев. Гулханий биографиясига доир мулохазалар// Узбек тили ва адабиёти. 1987, 1-сон.

ko'ksidek bag'rim tahbatah qaro qonlar", "Terlamish may tobidin gulbargi ruxsori ko'rining" "Barmog'im" singari g'azallarida lirik qahramonning ruhiy kechinmalari ta'sirli ifoda etilgan. Uning "Bideh" (bergil, ber menga)radifli g'azalida o'zining navkarlik davridagi og'ir hayoti tasvirlanadi. Mazkur asarda muallif katta ijtimoiy masalalarni — o'z davrining harbiy tartibi, rasm-rusumlari. navkarlar hayotini ta'sirli misralarda bayon etgan. G'azalning lirik qahramoni obrazi umumlashma obraz darajasiga ko'tarilgan. Gulxaniy o'zining noyob iste'dodi, xalq hayotini kuzatish orqali orttirgan tajribasi, turmushga haqqoniy qaray bilishi tufayli xalqchil ijodkor sifatida adabiyotimiz tarixidan munosib o'rin egallagan. Uning ijodiy merosi hajman katta bo'lmasa-da. XIX asr o'zbek milliy adabiyoti rivojiga samarali ta'sir ko'rsatgan.

Gulxaniyning hayoti haqida so'z yuritgan olimlar uningning vafot etgan joyi, vofoti haqida ham turli fikrlar bayon etmoqdalar. Ayrim adabiyotshunoslar uni Umarxon vofotidan keyin, 1822-yildankeyin vofot etgan, desalar, ba'zilar nima uchundir bu tarixdan oldin shoir vafot etgan, deb ko'rsatishga intilgan.

Akademik V. A. Abdullayev o'zining "O'zbek adabiyoti tarixi" kitobida bu haqida quydagicha ma'lumot beradi:

"...Ba'zi manbalarda Gulxaniyning Umarxon vofotidan so'ng o'z vataniga qaytib ketganligi taxmin qilinsa boshqa manbalarda uning Muhammadalixon tomonidan aldab o'ldirilgani aytiladi. Chunonchi, mazkur xon hokimiyatga kelgach otasi davridagi e'tiborli kishilarni taqib ostiga oladi. Jumladan, Gulxaniyni Yangiqo'rg'onga hokim qilib tayinlash bahonasi bilan Namangan hokimi bilan kelishib, shoirni junqopga solib, Sirdaryoga tashlab yuboradi. gulxaniyning bunday fojiali o'ldirilishini shoir Boki Avaz Muhammad Attorning "Tarixi jahonnoma" va muallifi noma'lum "Tarixi Ho'qand" qo'lyozma asarlari tasdiqlaydi".¹⁶

Adabiyotshunos R. Muqimov ham Gulxaniy haqidagi maqolasida yuqoridagi fikrlarni keltirib, bu manbalarda shoir 1822 -yildan keyin Namanganda vahshiylarcha o'ldirilgan degan xulosaga keladi.

¹⁶Abdullayev V. A. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. 1964, 271- bet.

Ammo Fathiddin Is'hoqov yuqoridagi fikrlarni rad etdi, u shoirning vofoti tarixini Dishod Barnoning "Muhojirlar tarixi" asariga asoslanib, 1919-yil deb ko'rsatadi.

"...Dilshod Barno risolasinig o'zbekcha nusxasida bu haqida bir gap bor – voqealarning xronologik bog'lanishga e'tabor qilinsa, bundan shoir vofoti tarixiga birmuncha aniqlik kiritish mumkin. Gap shundak, shoira 1215 hijriy(1800) yilda to'g'lgan bo'lib, 17 yasharligida 1817 yilda uni O'ratepadan Qo'qonga – xon saroyiga va u yerdan umr bo'yi yashab qolgan uyga ko'chirganlar Xon sroyidan chiqayotib, u hammom gulaxida makon qurgan uyga bir necha qalandarlarga duch kelgan edi. "Bir necha yil keyin mazkur qalandarlar ilan shunosa bo'ldim, - deb yozadi Dilshod otin, chunonchi, ikkiyil o'tgandan keyin bir zaifa vositasi bilan shoir Majzub ro'zg'orlari ilan vaslga muyassar o'lundi. Ul buzruk adib sabablari ilan Muntazir va Gulxaniyborasinda ilim paydo bo'ldi. Ammo shoir va mutafakkir Gulxaniy bori favt bo'lg'on ekan ..."¹⁷

“ZARBULMASAL”

Buyuk Karimiy ikkinchi jahon urushi va undan keyingi dastlabki yillarda "Zarbulmasal"ning ikki qo'lyozma va to'rt litografik nusxalari asosida asarning tanqidiy matnini tuzdi, lekin bu matn, ma'lum sabablarga ko'ra, ommalashmay qo'lyozma xolida qolib ketdi. 1970-yillarga kelib Andijondan asarning nisbatan eskiroq, butunroq va ishonchliroq qo'lyozma nusxasi topilib qolgan. Shu munosabat bilan ushbu satrlar muallifida ham "Zarbulmasal"ning bor qo'lyozma va bosma nusxalarini jamlash, qiyoslash, agar manbalar izn bersa, ilmiy-tanqidiy matnini yaratish niyati to'g'ildi. O.Sharafiddinovning Gulxaniy "Zarbulmasal"ining xilma-xil qo'lyozmalari borligi haqidagi xabarga ishongan edi.

"Zarbulmasalning" Andijon nusxasi (A), Buyuk Karimiy qo'lida bo'lgan ikki qo'lyozma (BK1, BK2), Qo'qon adabiyot muzeda saqlanuvchi uch manba (Q1, Q2, Q3) va undan ziyot litografik nusxalarni jamlab ularni qiyosiy o'rganish natijasida asarni ilmiy – tanqidiy matnini yaratdi. Bu matnlarga tayanib Muhammad

¹⁷Gulxaniy. Zarbulmasal. Toshent. 1974, 5-bet

Sharif Mulla Gulxaniyning “Zarbulmasal” nomli asari o‘zbekcha nasriy badiiy obidalarining kamyob namunasi bo‘lishi bilan birga, mazmuni, tuzilishi, tasvir usuli va vositalarining milliyligi o‘ziga xoslik jihatidan ham alohida qiymatga ega bo‘lgan nodir yodgorliklardan biridir desak adashmagan bo‘lamiz. Uning iliy-tanqidiy matnini yaratishga birinchi bo‘lib qo‘l urgan Buyuk Karimiy edi va u “Zarbulmasal” haqida shunday fikrlarni bildirdi: “Bu asar yuzasidan so‘z yuritgan bir qator olimlar “Zarbulmasal”ni, ko‘pincha, masallar to‘plami sifatida izohlab kelishmoqda. Ammo shunisi hammaga aniq va ravshanki, o‘zbek klassik adabiyotida “masal” va “Zarbulmasal” terminlari hozir biz tushunadigan ma’noda ya’ni “basnya” ma’nosida emas, balki boshqacharoq ma’noda qo‘llaniladi.

Mavlono Lutfiy va Alisher Navoiydan keltirilayotgan quydagi baytlar mazmuniga e’tibor bering:

Nazar ahli ko‘rub nordek yanoqing.

Masal: “Bir noru ming bemor” derlar .

Ayoqingga tushar har lahza gesu,

Masaldurkim: “Charog‘ tubi qarong‘u”.

(Lutfiy)

Yitti jon og‘zimakim chiqmas uyidin ul hur,

“Chiqmqg‘on jonga umid” ushbu masaldur mashhur.

(Alisher Navoiy)

Ko‘rinib turibdiki, shoirlarimiz bu yerda “masal” terminini maqol, hikmatli so‘z, xalq iboralari ma’nosida ishlatilmoqda. Muhammad Sharif Gulxaniy ham “masal” terminini yuqoridagi ma’nolarda tushuntiradi”¹⁸. “Zarbulmasal” asarini yozishdan uning asosiy maqsadi oddiy xalq orasida mashhur bo‘lgan xalq maqollari va hikmatli so‘zlarni bir kitobga to‘plashdan iborat edi.

Gulxaniy o‘z asarining muqadimasida kitobning yozilish tarixi haqida so‘z yuritib, xon saroyida bo‘lgan shuaro majlislaridan birida maqol va hikmatli

¹⁸Эргашали Шодиев. Гулханий биографиясига доир мулохазалар. Узбек тили ва адабиёти // 1987, 1-сон.1-2 betlar.

soʻzning nutqdagi ahamiyati ustida soʻz ketganini eslaydi. Gulxaniy maʼlumotlariga koʻra, shu paytda Amir Umarxon saroyida Sultonxoja Ado Axroriy Faziliy Namangoniy va koʻplab shoirlar yigʻilgan ekan. Xon ularga qarata burungi yaxshilardan qolgan, kishilar soʻzlashganida koʻproq foydalanadigan “Zarbulmasali roʻzgor”ni toʻplab bir kitob keltirish zarurligini aytadi. Ammo yigʻilish ishtirokchilarning birortasi bu ishni oʻz zimmasiga olishini bildirmaydi. Shunda Amir Umarxon bu ishni Gulxaniyga topshiradi. Bu haqida “Zarbulmasal”da quydagicha maʼlumot berdi:

“... Banogoh nazari kimyo asarlari kamina mullo Gulxaniyga tushub eʼtrof va altofi xusravonlarni qarini va shomil ahvolim koʻrib, buyurdilarki, bu zarbulmasallarni necha hikoyatlar orasida aql donishning borligi yitishicha tartib vir. Men aydim: “Ey shohi jahon panoho, tojikning bir masali bordirki: “az koʻza hamon yarovad, ki dar ost”. Alar aydilarki: “Oʻzbekning bir masala bordirki : “Eshokigʻa yarosha tashogʻi”. Va yana bu soʻzni eshitgan soʻng... amirimiz amirlarini vojib bilib, kamari himmat beliga bogʻlab, talab yoʻligʻa sobit qadam boʻldim ... va toʻrt yuz zarbulmasali avomunnos Yapoloq qush va Boyqushning qudaliklari arosinda oʻz mavridida bayon boʻlur ”.

Unda hayotning dolzarb muammolari turli odamlar oʻrtasidagi munosabatlari, xalq turmush tarzi va udumlari haqida majoziy uslubda soʻz yuritiladi. “Insonga xos xususiyatlar boshqa jonli va jonsiz narsalarga koʻchirib tasvirlangan asarlar majoziy asar deyiladi”.¹⁹ Gulxaniy ham qizim, senga aytaman kelinim sen eshit qabilida qushlar misolida oʻz davri voqeligi manzaralarini tasvirlaydi. Toj-u taxt talashlari, urushlar natijasida yurt vayron, xalq xarob boʻlgan. Oʻsha davrda Buxoro va Qoʻqon xonliklari oʻzaro urishib yurganlari uchun ham asarda Buxoro goʻyoki vayronalarga boy muzofot sifatida tasvirlanadi. Qoʻqon ham undan obod emas edi. Adib aytmogʻchi. xonning atrofini Boyoʻgʻli,

¹⁹ AhmedovS., QosimovB., QoʻchqorovR., RizayevSh. Adabiyot (Umumiyoʻrtataʼlimmaktablarining6-sinfuchundarslik).IIqism. – T.: Sharq. 2011-yil, 107-108-betlar.

Yapaloqqush, Ko‘rqush, Kordon, Kulonkir sulton kabi yomon amaldorlar o‘rab olgan. Bu ketishda mamlakat vayronaga, shoh uning ustidagi Boyo‘g‘liga aylanib qolishi hech gap emas. Gulxaniyning yirtqich va asosan, tunda ov qiladigan qushlarni o‘z asariga qahramon qilib olishida nozik ishora mavjud.

“Zarbulmasal” arabcha *zarb* va *masil* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan bo‘lib, “masallar yig‘indisi”manosini beradi. Masal so‘zi o‘tmishda biz hozir qo‘llaydigan maqol ma’nosida ishlatilgan. Zarbulmasal so‘zga maqol qo‘shib gapirish, o‘xshashi va dalilini keltirish ma’nolarini ham anglatadi. Zarbulmasal bo‘lish — el og‘ziga tushish, afsona bo‘lish, mashhur bo‘lish ma’nolarida ham keladi. Bundan ma’lum bo‘ladiki. Gulxaniy o‘z davri va zamondoshlarini asarda zarbulmasal qilgan. Asar qahramonlari o‘z nutqlarida vaziyatga mos ko‘plab maqollarni keltiradilar, to‘g‘rirog‘i, maqollar yordaimida gapiradilar. Shu bilan birga, ular bir-birlariga turli masal va hikoyatlarni aytib beradilar. Asarda Yapaloqqush va Boyo‘g‘li bir-biriga quda bo‘lishi voqeasini keltiradi. Bu ikki quda to‘y bahonasi bilan mamlakatni honavayron qiladi. Yozuvchi Ko‘rqush, Hudhud, Kulonkirsulton, Sho‘ranul, Malik shohim va Kordonlarning bir-biriga aytgan masallari, hikoyalari orqali asarning g‘oyaviy mazmunini ochadi.

Yapaloqqush va Boyo‘g‘li yuqori tabaqa vakillari. Ularning xatti-harakatlari ochkoz va qonxo‘r bo‘ri, aldanchi va shayton tulkilarga o‘xshaydi. Bularning o‘y-fikrlari, yurish-turishlari shumlik, shahar va qishloqlarning vayron bo‘lishi ular uchun bayramdir.

Gulxaniyning “Maymun bilan Najjor” masalida hunar va hunar ahlini ulug‘ladi, qo‘lingdan kelmaydigan ishga aslo urinib kulgi bo‘lma, ko‘r- ko‘rona birovga taqlidqilib falokatga yuliqma, degan fikrni maymun qismati orqali ko‘rsatadi. Najjor esa juda aqlli va mohit hunarmand sifatida tasvirlanadi. U ijtimoiy, foydali mehnat bilan shug‘illanishni har narsani yuqori qo‘yadi. Gulxaniy Najjor va uning mehnatini, durodgorlik mahoratini katta mahoratni katta muhabbat bilan muhabbat bilan tasvirlar ekan, hattoki maymuni ham mehnatga muhabbat bilan qaraydi, hunariga va hunar egasiga uning havasi keladi, degan fikrni olg‘a

suradi. Bu masal Ezopning “Burgut Zag‘cha va Cho‘pon” masalida ham keltirilganligini ko‘rish mumkin.

Mehnatkash xalqning og‘ir hayoti, huquqsizligi va nochorligi, bir so‘z bilan aytganda ayanchli qismati “Tuya bilan bo‘taloq”da o‘ziga xos badiiy ta’sirli qilib beriladi. Shoirning tasvirlashicha tuya hayotda, ezilgan, tutqin, erk-ixtiyorsiz, og‘ir mehnat bandisi hamda qul qismatiga mahkum etilgan mehnatkashlarning majoziy obrazidir. Bo‘taloq esa ona sutiga to‘ya olmay, og‘ir mashaqqatli hayot kechirgan, och-yalang‘ochlikda, muhtojlikda yashagan erksiz mehnatkash bolalarning timsolidir. Jumladan, adib “Toshbaqa va Chayon” rivoyatida jamiyatdagi nohaqliklarni, yovuz, nonko‘r insonlarning obrazini ochib bergan.

Muallifning ushbu masalida bir-biriga zid va qarama-qarshi ikki obraz berilgan: Toshbaqa – aqlli, farosatli, safarlarda ko‘p yurib, ancha tajriba orttirgan, insofli sodiq va qadrdon do‘st timsoli. U o‘z hamrohi chayonning suvdan o‘ta olmasligini bilgach, uning yordam qo‘lini cho‘zadi. Lekin toshbaqa chayonning xiyonatini “sen bilmaysanmi? Chayonning muddosi hoh do‘sting ko‘ksiga, hoh dushmanning oraqasiga bo‘lsin nish urishdir” degan javobni eshitgach uni halok qiladi. Gulxaniy bu masali orqali Chayonga o‘xshagan odamlar bilan do‘st va hamroh bo‘lmaslikka, kishi o‘zini va taqdirini o‘shanday kishilarga topshirib qo‘ymaslikka chaqiradi.

Shuningdek, adib badiiy so‘zning nechog‘liq qudratli ekanini, uni qadriga yetadigan kishilarga aytish kerakligi, behuda isrof qilmaslikni maqollar misolida shunday ta’riflaydi: “So‘zni aytqil uqqanga, jonni jonga suqqanga, so‘zni aytib netarsan, ondin yamon tuqqanga”, “Yaxshilar topib so‘zlar, yomonlar qopib so‘zlar”, “Agar so‘z jona paydo qilmasa so‘z, ani so‘z demagil, ey majlis afro‘z”, “Shirin-shirin so‘zlasang ilon inidan chiqar, achiq-achiq so‘zlasang musulmon dinidan chiqar” va boshqa bir qancha maqollar keltiradi.

“Zarbulmasal”da 400 ga yaqin maqol, matal, naql va 15 dan ortiq katta-kichik masal va hikoyat mavjud. Bu muallifning xalq hayoti, turmush-tarzi, an’ana va marosimlari, og‘zaki va yozma adabiyotni chuqur bilganligidan dalolat beradi.

U mashhur hind eposi “Kalila va Demna” Abdurahmon Jomiyning “sil-silat uz-zahab” asarlari, shuningdek, Sa’di Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, So‘fi Olloyor kabi ulug‘ so‘z ustalari hikmatlaridan ham mahorat bilan foydalangan.

II BOB. ERTAK VA MASAL JANRINI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR YORDAMIDA O‘QITISH

2.1. Ertak janrlarni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish usullari.

O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish kelajakda o‘qituvchilik kasbini egallaydigan yangi avlodning yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy faollik, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil qatnasha olish qobiliyatlarini shakillantirishga yo‘naltirilgan. Ma’lumki, bugungi kunda pedagogikani insonparvar pedagogikaga aylantirish ta’lim sohasining muhim masalasiga aylandi. Shuning uchun ham ta’limni insonparvarlashtirish orqali yuzaga kelgan mavjud muammolarni oqilona hal etib borish yangicha ishlashni, yangi pedagogik tafakkurni shakillantirishni taqozo etadi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin ma’naviyatimiz ildizlarini, qadryatlarimiz va tariximizni o‘rganish uchun keng imkoniyat yuzaga keldi. Yurtboshimiz I. Karimov ta’kidlaganidek: “Biz bugun uzoq davom etgan g‘aflat uyqusidan uyg‘ondik. Tariximizni, madaniyatimizni, o‘zligimizni tanidik va tiklay boshladik”.

Biz avvalo interfaollik nima ekanligini o‘quvchilarga tushuntirib o‘tishimiz lozim. Interfaollik –o‘zaro faollik, harakat, tasirchanlik, o‘uvchi va o‘qituvchi muloqotlarida sodir bo‘lar ekan, bu usulning bosh maqsadi o‘quv jarayoni uchun eng qulay sharoitni yaratish orqali bilim oluvchining faol, erkin fikr yuritishga muhit yaratishdir.

“O‘qitishning interfaol uslubiyotlari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta’lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘ladilar, Ular biladigan va o‘ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Interfaol darslarda o‘qituvchining o‘rni qisman o‘quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo‘naltirishga olib keladi”.²⁰Bu jarayon o‘quvchining intellektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etadi va o‘quv sifati hamdasmadorligini oshiradi. Interfaollik asosida o‘tiladigan darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta hamo‘quvchi chitda qolmaydi, ya’ni, ular ko‘rgan, bilgan o‘ylagan fikrlarni ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

²⁰Xudayberdiyev A. Adabiyot o‘qitishning dolzarb masalalari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Samarqand 2013-yil.

Interfaol usulning maqsad vazifalarini quydagich ifodalash mumkin:

- Ta'lim oluvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy, tahliliy, mantiqiy, ijodiy fikrlashga va ular asosida to'g'ri qarorlar qabul qilishga o'rgatish;
- Bilim oluvchilarni muammoli vaziyatlardan qiynalmay chiqib olishga, nazariy va amaliy hamda hayotiy topshiriqlarni bajarishni uddalashga o'rganish ;
- o'quvchilarni fikrlashga undash orqali, ularni izlanishga va ijodorlikka yo'naltirish;
- Ta'lim oluvchilarni tashkilotchilik, boshqaruvchilikka undash.

Interfaol usullardan foydalanishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, quydagi vositalardan foydalanish mumkin:

- kasbiy didaktik o'yinlar;
- rolli o'yinlar;
- kasbiy kompyuterli o'yinlar;
- interfaol o'quv adabiyotlari;
- axborot kommunikatsiya;
- metodik ko'rgazmalardir.

Yangilangan klassifikator bo'yicha oliy ta'lim yunalishlari va mutaxassisliklarning takomillashtirilgan, tasdiqlangan hamda amaliyotda bosqichma-bosqich tatbiq etilayotgan DTSda "Ta'lim jarayonini o'quv-metodek va axborot resurslari bilan ta'minlash"da "pedagogik texnologiya tamoyillari asosida mashg'ulotlarni loyihalash" lozimligi belgilangan.

Har bir millatning kelajagi yosh avlotga berilayotgan ta'limning sifati bilan belgilanadi. Bu borada yurtimizda olib borilayotgan ishlar etiborga loyiq. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilab qo'yilgan mezonlar asosida ta'lim samaradorligiga erishish har bir pedagog oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Shunday ekan, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar hamda oliy ta'lim muassasalarida tahsil berayotgan o'qituvchilar yoshlar dunyoqarashini o'stiradigan ilg'or pedagogik texnologiyalardan dars

jarayonida foydalanishi hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilanganidek, “ta’limning yangi shakl va uslublari, o‘quv, shu jumladan differensiyalashgan dasturlarni amaliyotga joriy etish” zarur.

“Ertaklar yaxshilikka yetaklar” mavzusida Isoatlik dars ishlanma

Dars shiori:

“Aytib ber - men unitaman, ko‘rsat – tushunaman, bu narsani o‘zim bajarishim uchun sharoit yarat – va men o‘rganaman”. (Konfutsiy)

Darsning maqsadi:

- **ta’limiy maqsad:**ertak janrinida insoniy xislatlarni his etishni o‘rgatish
- **tarbiyaviy maqsad:** o‘quvchilarga axloqiy tarbiy berish, insoniy fazilatlar va ezgulik xislatlarini ongiga singdirish. O‘quvchilarda vatanga mihabbat ruhida tarbiyalash, o‘zidan kattalarga hurmat kichiklarga izzadda bo‘lishni uqtirish.
- **Rivojlantiruvchi maqsad:**o‘quvchilarni mantiqiy fikrlash malakalarni va og‘zaki nutqini o‘stirish, mustaqil ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- **Asarda foydalangan jihozlar:** darslik, tarqatma materiallar, rangli rasimlar ko‘rgazmali qurollar.
- **Fanlararo bog‘lanish:** xalq og‘zaki ijodi, tarix, pedagogika, psixologiya.
- **Darsda foydalanilgan usullar:** musobaqa, “Uch qadam olg‘a”, “So‘z izohi” usullari.
- **Darsning borishi:**
 - I. Tashkiliy qism.** O‘quvchilar bilan salomlashib, davomat aniqlanadi, navbatchi hisobati tenglanadi. Shundan so‘ng o‘quvchilar 3 guruhga bo‘linadi.

II. O‘tilgan mavzuni so‘rash.

Bunda “Uch qadam olg‘a” usulidan foydalanish mumkin. Bu usul shartiga ko‘ra har bir guruhdan bittadan vakil chiqadi va uchta savolga javob beradi. Savollarga to‘g‘ri va tezkorlik bilan javob bergan guruh vakillari bir qadam olg‘a

bosadi. Shu tarzda 2-3 savolga to'g'ri javob bergan guruh vakillari uch qadam bosib, oldinga o'tib oldi. Faol ishtirok etgan guruh vakiliga rag'bat kartochkasi beriladi. Bu usulda quydagi savollar bilan murojaat etish mumkin:

Birinchi uchlik savollari:

1. Ertak deb nimaga aytiladi?
2. Ertakning turi nima xil?
3. Hayvonlar haqidagi ertaklarga misol ayting?

Ikkinchi uchlik savollari:

1. "Uch og'a-ini botirlar" qaysi ertak turiga kiradi?
2. Ertak atamasi birinchi marta kimning asarida uchraydi?
3. Hayotiy-mayishiy ertaklarga misol ayting?

Uchinchi uchlik savollari:

1. Sehrli ertaklarga misol ayting?
2. Toshkenda ertak atamasi qanday nom bilan aytiladi?
3. Xorazimda qanday nomlanadi?

III. Yangi mavzu bayoni.

Yangi mavzu "Susnibil" ertagi. Qadrli bolalar, avvalgi darslarimizda "Uch og'a-ini botirlar" ertagi bilan tanishgan, uning betakror badiiy olami, uch og'a-ini, ulaming qahramonliklari, go'zal xulqi, odobi, aql-farosat egasi ekanliklaridan zavq olgan edik. Ushbu ertak mazmunidan talay kerakli xulosalar chiqardik, ertaklar shunchaki ko'ngil ochish, ovunish uchun aytilmasligi va to'qilmasligiga ishonch hosil qildik, ularning mavzu jihatidan hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, hayotiy-maishiy ertaklar, hajviy ertaklar kabi turlari borligini ham bilib oldik. Bu ertaklar orasida hayvonlar haqidagi ertaklar ham o'z o'rniga ega.

Hayvonlar haqidagi ertaklar barcha qiziqib tinglaydigan va o'qiydigan fantastik hikoyalardir. Ulardagi asosiy mazmun majoziy tarzda tasvirlanadi, asar qahramonlari hayvonlar bo'lsa-da, voqealar odamlar turmushi kabi kechadi. Hayvonlar haqidagi ertak personajlari — bo'ri, tulki, sher, turli parranda va hasharotlar xuddi odamlarday harakat qiladilar, gapiradilar. Agar e'tibor bersangiz,

bunday xislatlar hayvonlarda deyarli yo‘q. Bo‘ri, tulki yoki boshqa bir hayvon o‘z o‘ljasini qo‘lga kiritish uchun epchil, chapdast, ziyrak bo‘lishi mumkin, biroq ayyorlik, tilyog‘lamalik, chaqimchilik qila olmaydi. Bu ko‘proq hayvonlar vositasida majoziy mazmun — insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘rsatish uchun o‘ziga xos uslub. Xalqimizda birovning salbiy qilg‘i, muomalasi hamisha ham yuziga aytilmaydi, aniqrog‘i, birovning aybini ko‘rsatib tanbeh berishdan ko‘ra, uni yomon odatlardan ogoh etish, qaytarish millatimizga xos xususiyatdir. Bema‘ni xulqli odamni yaxshi yo‘lga boshlash, tarbiyaga muhtoj insonni ezgu ishlarga undashda xuddi shu hayvonlar haqidagi ertaklar, ulardagi majoziy qahramonlar (bo‘ri, tulki, eshak, xo‘roz kabi) qo‘l keladi. “Susambil” ertagi o‘z mazmuni bilan ana shunday asarlardan biridir.

Bu ertak o‘zbek xalq ertaklari orasida o‘zining tili, tasvir jozibasini, mavzusining muhimligi bilan ajralib turadigan asar. Avvalo, ertakda xalqimizning adolat va farovonlik hukm suradigan zamonlar haqidagi orzulari aks etgan. Susambil ertakda Adolat qaror topgan va hamma baxtli yashaydigan afsonaviy yurt timsoli sifatida tasvirlanadi. E’tibor bersangiz, Eshakvoy yo‘lda yo‘ldosh bo‘layotgan har bir jonivoming “Susambil qanday joy?” degan savoliga “Susambil — o‘tning bo‘lig‘i, suvning tinig‘i, unda azob-uqubat yo‘q, maza qilib yurasan”, deb javob beradi.

Ikkinchidan, jonivorlarning ko‘zlagan maqsadlariga erishishlarida ularning sabr-toqatli bo‘lganliklari, mashaqqatlarga chidashgani muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Mashaqqatlarga bardosh bergan jonivorlar jannatmakon go‘sha Susambilga yetib keladilar, shu joyda rohatfarog‘atda umr kechiradilar.

Uchinchidan, jonivorlarning o‘zaro ahilliklari, birdamligi ularning tashqi dushman — bo‘rilar galasi hujumidan qutqaradi. Bo‘rilar podshohi Susambilni ashlab yetti tog‘ning narigi tomoniga qochib ketadi. Mazkur ertak nihoyatda ravon, xalqchil, shirali tilda berilgan. Ertak boshlanishidayoq kishini o‘ziga jalb etadi.

Bu mavzuda o‘quvchilarga o‘qituvchi asar qahramonlarning nomlarini aytadi o‘quvchilar har bir qahramonga izoh aytib o‘tadi shuning uchun ham bu usulimizning nomi “so‘z izohi”deb nomlanadi.

I guruh “Munkarnakir” (hukiz) so‘ziga izoh bering.

1-o‘quvchi

2-o‘quvchi

3-o‘quvchi

II guruh “Azroil”(arilar) so‘ziga izoh bering

1-o‘quvchi

2- o‘quvchi

3-o‘quvchi.

III guruh. “So‘fi”(xo‘roz) so‘ziga izoh bering.

1-o‘quvchi

2-o‘quvchi

3-o‘quvchi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

1. Susanbil ertagi qaysi ertaklar turkumiga kiradi?

2. Eshak, xo‘roz, ho‘kizni xo‘jayinlari uyni tashlab ketishga nima majbur qiladi?

3. Susanbil qanday yurt?

4. Ertakda jonivorlarning ahilligini nimalarda ko‘rdingiz?

V. Baholash va rag‘batlantirish.

O‘quvchilarga beradigan rag‘bat kartochkalari oldinda quyda ko‘rsatilgan shaklda qirqib tayyorlab qo‘yilad. Baholash jarayonida rag‘bat o‘qituvchi tomonidan sharhlab beriladi va g‘olib guruh aniqlanadi. Rag‘batlarni ko‘p to‘plagan guruh ofarin ya’ni a’lo 5 baho bilan baholanadi, rag‘bat kartochkalarnio‘rtacha to‘plagan guruh barakalla ya’ni yaxshi 4 baho degan baholar bilan o‘quvchilar bahlanadi. Ikkala guruhdan ham kam bal to‘plagan guruh tasanno ya’ni qoniqarli 3 baho bilan guruh o‘quvchilari baholandi.



VI. Uyga vazifa. “Susanbil” ertagini o‘qib chiqish va 10 ta savol tuzish.

Janni Rodarining “Hurishni eplolmagan kuchukcha”ertagini o‘qib o‘rganishbo‘yicha dars ishlanma.

Darsning maqsadi: O‘quvchilarni ertaklarning sehrli olamiga oshno etish. Ertaktahlili orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijod qilishga o‘rgatish.

Ertakni o‘qish uchun 3 soat ajratilgan bo‘lib, 1-soatni quyidagi reja asosida o‘tkazish mumkin:

Darsning borishi:

1. O‘tilgan mavzuni so‘rash.
2. Yangi mavzuni bayon qilish
3. Aqliy hujum
4. “Yozuvchi o‘zi haqida” maqolasi va ertak matnini o‘qish.
5. Guruhlarda ishlash.
6. Fikrlar himoyasi.
7. Uyga vazifa topshirish. O‘tilgan mavzu mustahkamlanadi.

Yangi mavzu“Aqliy hujum” bilan boshlanadi.J.Rodari kim, uning qaysi asarlarini o‘qigansiz?

O‘quvchilarning javoblari tinglanadi va umumlashtiriladi.

Darslikda J. Rodari bo‘yicha axborot beruvchi adibning o‘zi haqida yozgan esdaliklari o‘qitiladi. Yozuvchi o‘zining qay tarzda ijodkor bo‘lib qolganligi

haqida bolalarcha oq ko'ngillik bilan qilgan hikoyasi o'quvchilarda yorqin taassurot qoldiradi. Chunki uning bolalik xotiralari o'z samimiyligi bilan o'quvchilar ruhiyatiga yaqin. Ularda qaysi qit'ada yashashi, dini, irqi, tanasining rangidan qat'iy nazar barcha bolalarga xos jihatlar mavjud. O'z ertaklari bilan dunyo bolalarining muhabbatini qozongan, ularning sevimli do'stiga aylangan buyuk yozuvchining xuddi o'zlariga o'xshagan orzulari bo'lgani, ularning qay biriga erishib qay biriga erisholmagani, o'zligini topguncha ancha izlangani, u ham ba'zan yomon baholar olgani va ayniqsa, bunga samimiy iqrор bo'lgani bolalarni o'ziga tortadi.

Guruhlarda ishlash:

Maqola o'qilgandan keyin o'qituvchi bolalar bilan matn ustida ishlash uchun o'quvchilarni guruhlariga bo'ladi va har bir guruhga topshiriqlar beradi:

1. Yozuvchi bilan sizning orzularingiz o'rtasida o'xshashlik bormi?
2. Uning ayrim sohalarda o'z no'noqligini tan olganiga qanday qaraysiz?
3. Yozuvchining «so'zlardan o'yinchoq yasashga kirishgani qanday tushundingiz?
4. Har bir kishiga yoqimli, har bir kishining didiga mos. boshqa o'yinchoqlarga o'xshamaydigan, hech qachon ko'ngilga urmaydigan o'yinchoq haqida fikr bildiring.
5. Ijodkor fikrining haqiqat ekanligiga, uning yozuvchi bo'lish uchun uzoq tayyorgarlik ko'ganligini qanday tushundingiz?
6. Boshqalarning o'z fikrlarini bayon qilishlarida, so'zlashlarida, kattalarga savol berishlarini talab qilishlarida dalda yoki turtki bo'lishi nima uchun adibni o'n chandon hursand qiladi?

Bolalar topshiriqlar ustida ishlashsin, tahlil qilishsin, munosabat bildirishsin. Insonga berilgan ilohiy ne'mat, tug'ma iste'dod uning o'zi tomonidan rivojlantirilishi lozimligi, buning uchun odam intilishi, izlanishi kerakligi bolalar shuuridan kechsin, yozuvchining ertak yozishdan maqsadi nima ekanligiga, o'zgalar manfaatini ko'zlaganligiga munosabat bildirsinlar. Shunda "Hurishni

eplolmagan ku-chukcha” ertagini adib ta’kidlaganidek, “zo’r ishtaha bilan paqqos tushirishlari va osonlik bilan hazm qilib yuborishlari mumkin” bo’ladi.

Fikrlarhimoyasi:

Guruhlarning fikrlari o’qituvchi tomonidan to’ldiriladi va umumlashtiriladi.

Shundan keyin ertak matni o’qituvchi tomonidan ifodali, ta’sirchan ohang bilan o’qib beriladi. Ertakni o’qishdan oldin o’qituvchi bolalarga J. Rodarining ertakchilikdagi o’ziga xos xususiyati har bir ertakning bir necha tugallanishi borligi va har bir tugallanishni diqqat bilan kuzatishlari lozimligini ta’kidlaydi. Ertakni o’qiganda o’qituvchi bor mahoratini ishga solishi, o’quvchilarda yaxshi taassurot uyg’otish uchun har bir jonivorning ovozi o’xshatishga harakat qilishi, imkon qadar buning tabiiy chiqishini ta’minlashi kerak bo’ladi. Ertak o’qilgandan keyin o’quvchilarga biroz dam berilgach, savol- topshiriqlar bilan ishlashga o’tiladi. Faol o’quvchilar ragbatlantiriladi va baholanadi.

Savol- topshiriqlarning davomiga mustaqil javob topish uyga vazifa etib topshiriladi.

Imkon bo’lsa ertakka ajratilgan ikki soatni yaxlitlab o’tish maqsadga muvofiqdir.

2-dars

Dars quyidagi reja asosida olib borilishi mumkin:

Tashkiliy qism:

- O’tilgan mavzuni davom ettirish.
- Guruhlarda ishlash.
- Savol-topshiriqlar bilan ishlash.
- Fikrlar himoyasi.
- Ertakning uchala tugashi bo’yicha muhokama
- To’rtinchi va beshinchi tugashi bo’yicha ijodiy matn yaratishga tayyorgarlik.

Guruhlarga quyidagi topshiriqli kartochkalar tarqatiladi:

1-kartochka

Xo‘roz bilan kuchukning suhbatini yana bir bor o‘qing. Bu suhbatda ularning tabiatiga xos jihatlar qanday namoyon bo‘lganligini toping

2-kartochka

Xo‘rozday qichqirishni va kakkuday sayrashni o‘rganib olishiga qaramay kuchukcha nima uchun atrofdagilarning e‘tiborini qozona olmadi deb o‘ylaysiz?

3-kartochka

Duch kelgan mahluqqa o‘q otaveradigan ovchining tabiatini tavsiflab berishga urining. Ovchining o‘qidan zo‘rg‘a omon qolgan kuchuk nimalarni o‘ylaydi-yu, o‘ljasiz qolgan ovchi nimalarni xayol qildi?

4-kartochka

Ertakning ikkinchi tugashidagi so‘nggi jumlaning o‘qing. Bu gapda qanday ma‘no yashiringan deb o‘ylaysiz? Ertakning uchinchi tugashida kuchukcha birdaniga hura ketibdi degan ta‘kidni qanday izohlaysiz?

5-kartochka

Sizga ertakning nechanchi tugashi yoqdi? Nima uchun? Xulosalaringizni asoslashga urinib ko‘ring.

6-kartochka

Hurishni bilmaydigan kuchukcha bilan o‘z tilini bilmay-digan odam o‘rtasida qanday o‘xshashlik bor deb o‘ylaysiz? Sizningcha kuchukchanning qaysi xatti-harakatini havas qilishga loyiq fazilat deb baholash mumkin?

Fikrlar himoyasi:

Har bir guruh o‘zlarining umumlashgan fikrlarini himoya qiladilar. O‘qituvchi ularni to‘ldiradi va umumlashtiradi. Darslikda ertak matnini o‘zlashtirishga doir savoltopshiriqlar anchagina. Maqsad — har bir alohida

o'quvchini matnning badiiy tahliliga tortish, ularni asarning botiniga olib kirish. Yozuvchi asar qahramonlarining xatti- harakatlari tasviri orqali nima demoqchi ekani haqida har bir bola o'zicha xulosa chiqarsin, o'z fikri, o'z dunyoqarashi, o'z hayotiy tajribasidan kelib chiqib munosabat bildirsin.

O'qituvchi o'quvchilarning o'z fikrlarini asoslashlariga e'tibor qaratishi kerak. O'quvchi fikrini asoslay bilsa, unda qat'iylik tuyg'usi, mustaqil fikrlashga urinish shakllana boradi.

Matn bilan ishlash jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni asar qahramonlarining xatti-harakatiga, bir-biriga munosabatiga e'tibor berishga jalb qilishi kerak. Chunonchi, ertakdagi xo'roz, kakku va sigir loqayd emaslar. Ular kuchukchanning iztiroblariga befarq qarab turmaydilar, unga qo'llaridan kelgancha yordam berishga urinadilar. Kuchukchanning dardini his etadilar. O'quvchilar xuddi shu holatni insonlar orasiga ko'chirsinlar, hayotda ko'rganlari bilan taqqoslasinlar. Uchovning xatti- harakatiga baho bersinlar, kuchukchanning faoliyatini kuzatsinlar. U o'zi mansub bo'lgan jinsga xos ishni bilmaydi, bundan iztirob chekadi. Kalaka qilib ustidan kulganlarida yig'lamoqdan beri bo'ladi. Shunga qaramay tushkunlikka tushmaydi, izlanishda davom etadi. Nihoyat hurishni o'rganib oladi. Shu o'rinda ertakning uchinchi tugashida boshqa bir kuchukning ovozi kuchukchanning qulog'iga ne sababdan buncha issiq eshitilganiga, yuragi jiz etib ketganiga, bu ovoz uning yuragini o'ynatib yuborganiga, o'z ishtiyoqi, intilishi va mehnati bilan qotirib qichqirish va qoyil qilib sayray olishga erishganiga o'quvchilar e'tibori qaratilishi lozim.

Dars oxirida uyga vazifa etib ertakni yana qanday tugatish mumkinligi haqida o'ylash, keyingi darsda yozilajak ertakka tayyorgarlik kovrish topshiriladi.

3-soat


Darsning borishi:

1. Klaster usuli.
2. Ertakning to'rtinchi va beshinchi tugashi bo'yicha ertak to'qish.
3. «Ertak to'qish darsi»

4. O‘quvchilarga bir-birlarining to‘qigan ertaklarini o‘qitish.
5. Mustaqil ish.
6. Uyga vazifa topshirish.

Klaster usulidan foydalanib, kuchukchanning sifatlarini yozib chiqish topshiriladi.

KLAUSTER USULI



Shundan keyin bolalar ertak to‘qishga o‘rgatiladi. Bu darsda bolalar ijod qiladilar. O‘zlari mustaqil ertakning to‘rtinchi, qurbi etganlari beshinchi tugashini yozadilar. O‘qituvchi bolalarga ijod erkinligini berishi kerak, ular qanday xohlasalar shunday yozsinlar. O‘quvchi balki quyi sinflarda ham shu ish bilan shug‘ullangandir, balki bunday topshiriq bilan birinchi marta to‘qnashayotgandir. Har ikkala holatda ham o‘qituvchi bolaning fikrini hurmat qilishi kerak. O‘z ishiga o‘qituvchisining qiziqib munosabat bildirishi o‘quvchida o‘z ijodiga, faoliyatiga ishonchni mustahkamlaydi. Shuning uchun o‘qituvchi samimiy bo‘lishi, hech qanday soxtagarchilikka yo‘l qo‘ymasligi kerak. Bir-birlarining ertaklarini o‘qigan bolalarni ham shunga o‘rgatish, ularda muomalamadaniyatini, o‘zgalarni tuyish hissini shakllantirish lozim. O‘quvchilar sinfdoshlarining ijodlariga munosabat bildiradilar. Eng yaxshi yozilgan ertaklar rag‘batlantiriladi.

Shundan keyin “Adabiy ertak” ilmiy-nazariy maqolasi o‘qitilib tushuntiriladi.

Ertaklarning tugallanishidagi eng asosiy fikrni quyidagi jadvalga yozib chiqish mustaqil vazifa etib topshiriladi.

<i>Ertak nomi</i>	<i>Ertakning birinchi tugashi</i>	<i>Ertakning ikkinchi tugashi</i>	<i>Ertakning uchinchi tugashi</i>	<i>Ertakning to'rtinchi tugashi</i>	<i>Ertakning beshinchi tugashi</i>
<i>Hurishni eplolmagan kuchukcha</i>	<i>Kuchukcha boshqa tillarni o'rganishga qobiliyatli</i>				

O'qituvchi o'quvchilar faoliyatini baholab, ularni rag'batlantirgach, darsni yakunlaydi.

Uyga vazifa qilib ertak yuzasidan rasm chizib kelish topshiriladi.

2.2. Masal matnini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish usullari.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 28-maydagi “Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini

shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida "ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik uslub va texnologiyalar,(Kase stady uslubi, loyihalar uslubi, hamkorlikda o'qitish, "Afzaliy o'yin", interfaol ta'lim uslubi va boshqalar), axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari va multimedia taqdimotlaridan foydalanish borasida chet el tajribasini chuqur va har tomonlama o'rganib chiqish" masalasi ustuvor vazifalar qilib belgilangan".²¹

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya tizimining zaruriy qismi ekan, uning vositasi orqali ta'lim sohasida tub burilishni amalga oshirish mumkin. Ma'lumotlilik – ma'rifat asosini tashkil etuvchi bosh g'oya, tabiat va jamiyat aloqadorligini anglab yetish, avtoritar va soxta tafakkur yuritish usulidan voz kechish, sabir bardosh, qanoat, o'zgarlar fikrini hurmat qilish, milliy va umuminsoniy qadryatlarni e'zozlash kabi sifatlarni shakillantirishdan iboratdir. Ushbu masalaning yechimi ma'lum darajada ta'limni texnologiyalashtirish bilan chambarchas bog'liq.

Masal janrini o'qitishda zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalardan, xususan, ta'limiy o'yinlardan keng foydalansa yaxshi bo'ladi. Bu, albatta, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirib, dars samaradorligini ta'minlaydi. Bunday vaziyatda o'qituvchi o'quvchilarning yoshi, fizologik holatini inobatga olgan holada qullaniladigan metod (uslub) va usullarni to'g'ri tanlay olishi kerak. Masalan, o'tilgan darsni mustahkamlash yoki yangi mavzuni o'quvchilar tomonidan qanday o'zlashtirilganligini tekshirish uchun "Tezyurar savol-javob" interfaol usulni qo'llash mumkin. Ushbu usulning shartlari quydagicha:

- 1) o'qituvchidan boshqa hech kum savol bermaydi;
- 2) savollarga javob bir so'z yoki so'z birikmasi bilan ifodalanadi;
- 3) savollar aniq ixcham tarzda o'qitilishi tezkor savolga tezkor javob izohi bilan uch soniyada yozilishi kerak;

²¹ Iztayeva G. Pedagogik texnologiya asosida –ta'lim -tarbiya sohasini tubdan yaxshilash.. Xalq ta'limi //2003. 5-son, 22-bet

4) har besh savoldan so'ng "strelka" ishorasi beriladi. Unga ko'ra, yozilgan har besh savolga javobni soatharakatiga qarab, o'quvchilar bir-birlarinikini ko'zdan kechiradilar hamma javobi yozilmagan savol raqamlariga belgi qo'yiladi. Masalan 5-sinifda Ezop masalarini o'rganishda quydagi usuldan foydalanish mumkin.

1. Ezop qachon va qayirda to'g'ilgan?
2. Ezopning nicta masali bor?
3. U qanday lavozimlarda ishlagan?
4. Samos orolida Ezopning xo'jayni kimga sotadi?
5. Ezopning o'zi haqida qanday rivoyatlar bor?

"Tezyurar savol-javob" interfaol usuli ajiratilgan vaqtga qadar bir nechabosqichda davom etadi. Ushbu savol-javob besh bosqichda (jami 25ta savol) amalga oshirilgan bo'lsa, bosqichlar sonini to'g'ri javoblar soniga bo'lamiz.

1-3ta, II-4, III-5ta, IV-4ta, V-3ta to'g'ri bo'lsa baho $(3+3+4+5+4+3=19:5=3.8)$ taqriban "4" bo'ladi bor-yo'g'i 4-5 daqiqada 25-35ta savolga oydinlik kiritilad. Ushbu usulning afzallik tomoni shundaki, o'qituvchi o'quvchilarnibir vaqtning o'zida ommaviy baholash, kim qanday o'zlashtirganini aniqlash mumkin. Bu metod orqali o'quvchilarda erkin fikirlash qobilyati shakllanishi bundan tashqari o'quvchilarning nutqi ham rivojlanib tezkor savolga tezkorlik bilan javob qaytara oladigan bo'ladi.

Dars samaradorligini oshiradigan metodlardan yana biri bu "**kvadrat testlar**" usulidir bu metodni ham dars davomida qo'llasak ijobiy samara beradi. Bu metod quydagicha amalga oshiriladi:

Belgilangan strelka bo'yich mantiqiy bog'liqlikni hisobga olgan holda "?" belgisi o'rniga kerakli ma'lumot yoziladi.

Ezop	?
------	---

?	Gulxaniy

Ushbu “kvadrat testlar”ning bir nicha murakkab ko‘rinishlarini hosil qilish mumkin. Ayniqsa, guruhlar bilan ishlashda bu testlar berilsa, raqobat kuchayib, tezkorlik yanada ortadi.

“Kvadrat testlar”ning murakkab darajalari quydagicha tuzilishi mumkin. Bu metodni Ezop masallari asosida ko‘rib chiqamiz.

Eshak bilan baqalar masalining g‘oyasi qanday	?
↓	↑
?	→ Ular Qanday qahramon

“Bo‘ri bilan laylak” masali	→	?
“Toshbaqa bilan chayon” masali	→	?

→	?
---	---

Bu metodda o‘quvchilar jadvaldagi masallarni keltirilganligini topadivake ying jadvalga ularning o‘xshashlik tomonlarini joylashtiriladi.

Ushbu usulda o‘qituvchi o‘zlashtirilgan bir nechta mavzularning mantiqiy izchilligini itahlil etadi, masal g‘oyasi, badiiylik tamoyili, qahramonlar qiyofasi, qiyosiy tahlil malakasini oshiradi.

Uygabergantopshiriqnitekshirishuchun

“5x15o‘yini” metodidan foydalansabo‘ladi: Bunda 1 dan
5gachabo‘lganraqamlardaraqamlarqiymatigatengma‘lumotlar (1gabitta, 2gaikkita,
3gauchta, 4gato‘rta, 5gabeshtama‘lumot, ularqo‘shibhisoblansajami
15tqma‘lumot) saralanadi.
Raqamlardagima‘lumotlarfaqatbiraxborotnitashkiletishivaketmaketlikizchilliknio‘z
idaaksettirishizarur.

Mavzu: 6-sinf darsligidan Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari

1-savol

1. nima uchun gulxaniy taxallusini qo‘llagan va u qanday ma‘no anglatadi?

2-savol

1. Bizgacha uning o‘zbek tojik tilidagi qancha g‘azali yitib kelgan?

2. Sh‘rlarida yana qanday taxollus qo‘llagan?

3-savol

1. Gulxaniyning qanday g‘azallari bor?

2. Gulxaniy va Navoiyning ijodida qanday o‘xshashlik bor?

3. “Zarbulmasal” so‘zining ma‘nosi?

4-savol

1. Gulxaniyning “Kabutar bilan Zog‘” masalining g‘oyasi qanday?

2. “Yodgor postindoz‘” masalining g‘oyasi qanday?

3. “Toshbaqa bilan Chayon masalining” g‘oyasi haqida tushuntiring?

4. “Maymun bilan nojkor” masalining g‘oyasi nima?

5-savol

1. Ezop va gulxaniyning bir- biriga o‘shash masallarini ayting?

2. “Zarbulmasal”da nechta maqol, metal, naql keltirilgan?

3. Nechta katta – kichik masal va hikoyat mavj

4. Gulxaniyning qasidasini nomi?

5. Qaysi g‘azalida o‘zining navkarlik davridagi og‘ir hayoti tasvirlanadi?

O‘qvchilar tarqatma maqterialda mavzu bo‘yicha berilgan tushunchalar yoniga

egallagan bilimlari asosida izoh yozadilar. O‘quvchi tarqatma materiallarda berilan tushunchalarni o‘qiydi, jamoa bilan birgalikda to‘g‘ri izohni belgilaydi yoki ekranda tushunchalar izohi berilgan slaydorqali tanishtiradi. O‘quvchilar harakatlarning ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etish, ma’lumotlar ichidan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishda “Blis so‘rov” usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, ertak janirini o‘rganish keying ertaklarni o‘rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

“Blis so‘rov” jadvali: Bu jadval har bir o‘quvchiga beriladi, ular materiallarni sinchiklab o‘rganib, o‘zlarining shaxsiy fikrlari asosida tarqatma materiallardagi “yakka baho” bo‘limga berilgan harakatning mantiqiy ketma-ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadilar. So‘ng o‘quvchilardan 4-5 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etiladi. Kichik guruhlardagi o‘quvchilar “yakka baho” bo‘limida belgilangan harakatlar ketma –ketligi bilan bir-birlarini tanishtiradilar va bahslashib, kelishgan holda tarqatilgan jadvaldagi “Guruh bahosi” bo‘limiga mos raqamlarni belgilab chiqadilar. So‘ng o‘qituvchi to‘g‘ri javobni, harakatlar ketma-ketligida raqamlar asosida yozadi. O‘quvchilar belgilangan to‘g‘ri javoblar bilan o‘qituvchining to‘g‘ri javobning fari 0.55 foizdan yuqori bo‘lsa, ushbu o‘quv mashg‘uloti o‘zlashtirilgznini bildiradi. Ushunchalar soni 13ta bo‘lib javoblarning 7-8 tasi bajarilsa, qoniqarli, 9-10 tasiga “yaxshi”, 11-13tasiga “a’lo”baho qo‘yiladi. So‘ng guruhdagi o‘quvchilarga test savollari tarqatiladi. O‘qituvchi test savollarini aniqlaguncha, guruh a‘zolari bugungi dasda o‘quvchilarni javoblarini o‘zaro kelishib baholaydi.

“Domino” o‘yini. Bu o‘yinda o‘quvchilarning har biriga savolnomalar tarqatiladi. Savolnomalarda avval boshqa bir savolning javobi, keyin yangi savolberiladi.1-savolni o‘qituvchi o‘qiydi. O‘qituvchibergan savolga qaysi o‘quvchidagi javob to‘g‘ri kelsa, o‘sha o‘quvchi javob beradi hamda o‘z savolini o‘qiydi. Bu savolning javobi kimning qo‘lida bo‘lsa, javob beradi va u ham o‘z savolini o‘qiydi. O‘quvchilardan tez va aniq javob berish talab qilinadi.

Masalan, o‘qituvchi so‘raydi:

Ezop qayirda to'g'ilgan?

1-o'quvchi:

Javob: Frigiya

Savol: Ezopning qancha masala yetib kelgan

2-o'quvchi:

Javob: 500 ga yaqin

Savol: Ezopning "Eshak bilan baqalar" masalining g'oyasi nima?

O'yin shu tariqa davom etadi.

"O'rgimchak to'ri" texnologiyasi

"O'rgimchak to'ri" usulidan foydalanishda o'quvchilarning faolligi, darsga tayyorgarlik darajasi inobatga olinadi. Bu texnologiya o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, og'zaki nutqini o'sishiga, zukkolik qobiliyatini yanada shakllanishiga xizmat qiladi.

Qo'llash: o'qituvchi sinfdan 5,6 nafar o'quvchini yozuv taxtasi yoniga chorlaydi. O'yin ular ishtirokida amalga oshiriladi. Muallimning qo'lida ipli koptokcha bo'ladi, u o'tilgan mavzu yuzasidan birinchi o'quvchiga savol berib, g'altakchani unga topshiradi.


O'quvchi ustoz bergan savolni yodida saqlab, ipli koptokchani bir uchini ushlagan holda o'zining mustaqil savoli bilan o'rtog'iga yuzlanadi. Bunday hol o'rgimchak to'rini hosil qilgunga qadar davom ettiriladi. Texnologik o'yin o'qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi. Berilgan savollarga javob olish uchun g'altakchani oxiridan boshlab so'raladi. Ipli koptokcha javoblar orqali yig'ib olinadi. Agar berilgan savolga javob to'liq bo'lsa, g'altakcha o'z shakliga qaytadi. Yaxshi ishtirok etgan o'quvchilar baholanib boriladi.

Bu usuldan o'tilgan mavzu bo'yicha yoki yangi mavzuni o'tib bo'lgandan keyin foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qo'llash: o'qituvchi sinfdan 5,6 nafar o'quvchini yozuv taxtasi yoniga chorlaydi. O'yin ular ishtirokida amalga oshiriladi. Muallimning qo'lida ipli koptokcha bo'ladi, u o'tilgan mavzu yuzasidan birinchi o'quvchiga savol berib,

g'altakchani unga topshiradi. O'quvchi ustozni bergan savolni yodida saqlab, ipli koptokchani bir uchini ushlagan holda o'zining mustaqil savoli bilan o'rtog'iga yuzlanadi. Bunday hol o'rgimchak to'rini hosil qilgunga qadar davom ettiriladi. Texnologik o'yin o'qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi. Berilgan savollarga javob olish uchun g'altakchani oxiridan boshlab so'raladi. Ipli koptokcha javoblar orqali yig'ib olinadi. Agar berilgan savolga javob to'liq bo'lsa, g'altakcha o'z shakliga qaytadi. Yaxshi ishtirok etgan o'quvchilar baholanib boriladi.

“Sirli doiracha” texnologiyasi. Bunda o'quvchilarga birinchi bo'lib o'qituvchi doiraning o'rtasida turib savol beradi, o'quvchilar ketma - ketlikda savollarga javob beradi. Noto'g'ri javob bergan o'quvchi jarima kartochkasi bilan o'yinni tark etadi.



Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, dars jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. O'quvchilarni darslarga bo'lgan qiziqishini, o'zlashtirish darajasini ko'taradi.

XULOSA

Xalq og'zaki ijodining bir qismi bo'lgan ertak va masal janri xalqimiz asrlar davomida yaratgan, o'z iymon-etiqodidek asrab-avaylagan, qancha avlod-

ajdodlarimiz shu xalq og‘zaki ijodi asosida tarbiya topgan, o‘zligini anglagan, ma’naviy boylikka ega bo‘lgan.

Adabiy ta’limning o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalari ancha keng doirani tashkil etadi. Ularning orasida eng muhimlari sifatida o‘quvchilarning ma’naviy dunyosini shakllantirish, ulardagi badiiy-estetik didni hamda ijodiy imkoniyatlarni tarbiyalashni ko‘rsatish mumkin. Bunda har qanday yuksak darajadagi badiiy asar juda katta va boy materiallarni bera oladi. Ertak va masal janri esa bu jihatdan ayricha ahamiyat kasb etadi. Folklor asarlari birinchi navbatda, xalq tafakkur tarzining, xususan, badiiy tafakkur tarzining mevalaridir. Shunga ko‘ra ulardagi xalqona dunyoqarashning so‘z san’ati vositasida ifodalangan go‘zal durdonalari o‘quvchilarga xalq ma’naviyatining, milliy qadriyatlarining takrorlanmas namunalari sifatida ko‘rinadi. Bularning barchasi folklorning ertak va masal janrlarida mujassamlashadi. Ta’limning turli bosqichlarida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va adabiy tayyorgarliklariga mos hamda muvofiq tarzda xalq og‘zaki ijodiga mansub bo‘lgan turli janrdagi yuksak badiiyat bilan yug‘rilgan asarlar o‘rganiladi.

Adabiyotshunoslikda, ertak va masal janrlarini o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari teran tahlil etilgan. Ammo ertak va masal janrlarini o‘qitish jarayonida mana shu nazariy asosdan yetarlicha foydalanilmoqda, deb bo‘lmaydi.

Darslik va qo‘llanmalardagi tahlillar asosan ertak va masal janrlarning g‘oyaviy mazmunini yoritishga yo‘naltirilgan. Ayrim hollardagina asarlardagi qahramonlarning o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor qaratiladi. Bu ham asosan, epik asarlar tahlilidagina ko‘zga tashlanadi. Bularning barchasi o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nutq malakalarining takomillashishiga omil bo‘ladi. Shu maqsadda bo‘lajak til va adabiyot fanlari o‘qituvchilari mavjud ilmiy-nazariy hamda metodik adabiyotlar bilan puxta tanishishlari, ularning mazmun va mohiyatlarini puxta o‘zlashtirishlari lozim.

Darslarda ko‘proq ertak va masal janrining tarbiyaviy tomonlariga e’tibor beriladi. Uning poetikasi, emotsional tomonlariga kamroq e’tibor berilayotgani

seziladi. O‘quvchilarning o‘zlari bevosita ertak va masaljanrlarining materiallarini to‘plash jarayonlariga jalb etilayotgan tajribalar mavjud.

Ertak va masal janrini texnologiyalar bilan o‘qitish o‘quvchilarning badiiy didini shakllantiradi, uni yuqori bosqichga olib chiqadi, ulardagi adabiy-ijodiy ko‘nikma va malakalarning shakllantirilishi hamda rivojlantirilishi uchun ham juda qulay pedagogik asos vazifasini ado etadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘quv dasturlarida folklor asarlarining ayrim namunalari tavsiya etilgan. Nazarimizda ular yagona tizim asosida tanlab olingan emas, zero, folklor asarlarini ta’lim bosqichlarida o‘rganishning yagona ilmiy konsepsiyasi ham ishlab chiqilganicha yuq. Folklor asarlari ham yagona, yaxlit tizimning alohida bo‘g‘inlari sifatida o‘rganilishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Shunga qaramay, hozirgi mavjud holatning o‘zidan unumliroq foydalanish yo‘llarini izlash zamonamizning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib turibdi.

Milliy istiqlol sharofati bilan ona tili ta’limini takomillashtirish davom etmoqda. Ona tili ta’limidan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchilarni nutqiy faoliyatga tayyorlash ekan, so‘z boyligini oshirish birinchi galdagi vazifa sanaladi. Shu maqsadda biz “Ertak va masal janrdagi asarlarni o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish” yo‘llarini ishlab chiqdik va dars o‘tish namunalari keltirdik. Ishimiz davomida quyidagi to‘xtamlarga keldik:

1. Matn badiyatini tahlil etish asosida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati o‘stiriladi.

2. Darsni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish o‘quvchilarning adabiyotga bo‘lgan qiziqishini orttiradi.

3. Adabiyot darslarida ta’limning interfaol usullaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

4. O‘quvchilar nutqini o‘stirishda ertak va masallar ustida ishlash yaxshi vosita bo‘la oladi. Chunki bola tabiatga yaqin, uni yangi olamga olib kiradi. Ertak tinglab, bolalar fikran undagi hamma voqea va hodisalarni chuqur his etadilar,

ertak qahramonlari bilan harakat qiladilar. Ertaklar orqali bolalar o‘zbek xalqining an’analari, urf-odatlari bilan yaqindan tanishadilar.

5. O‘quvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darslar tashkil etilsa, o‘quvchilarning darsni o‘zlashtirishlari osonlashadi, fikrlashi kengayadi, dunyoqarashi shakllanadi, o‘z fikrini, his-tuyg‘usini ona tilining imkoniyatlari doirasida ifodalash vazifalarini bajara oladigan darajadagi kelajak kishisi bo‘la oladi.

7. O‘quvchilar lug‘atini boyitish, nutqining ravon, silliq va ta’sirchanligini ta’minlashda xalq og‘zaki ijodi ustida ishlash, shubhasiz, yaxshi natija beradi.

Ayni paytda, zamonaviy pedagogik texnologiya – tizimli yondashuvlar asosida o‘qitishning shakllarini qulaylashtirish, uning natijasini kafolatlash va obyektiv baholash uchun zarur bo‘lgan inson salohiyati hamda texnik vositalarning o‘zaro hamkorligini namoyish qiladi. Ta’lim maqsadlarini oydinlashtirish, o‘qitish va o‘zlashtirish jarayonlarida qo‘llaniladigan usul, metod va vositalarni xilmaxillash ta’lim va tarbiya jarayonlari mazmunini chuqurlashtirish–bular hammasi ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish demakdir. Shunday bo‘lgach pedagogik texnologiyalar ham sarhadsiz tushunchalardir. Bu borada qancha ko‘p izlanilsa va qanchalik tashabbuskorlik bo‘lsa – shunchalik kamdek tuyulaveradi. O‘qitishning eng oddiy va bosh haqiqati ham ana shundadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1999.
2. Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият. – Т.: Ўзбекистон.1999.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
4. Каримов И. А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009.
5. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги қонуни // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Т.: Шарқ, 1997.

II. Ilmiy adabiyotlar

6. Azizxo‘jayev N.M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Т.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adolat, 2006.
7. Зуннуова. 4-10 sinflarda adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganish. “Ўқитувчи” nashriyoti, Toshkent-1974.
8. Зуннуов А. Мактабда адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: 2010.
9. Ёўлдошев Қ. ва б. Адабиёт ўқитиш методикаси. Дастурий қўлланма. –Т.: РТМ, 1994.
10. Ёўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1996 йил. 62-бет.
11. Yo‘ldoshev J.G. Usmonov S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Т.: “O‘qituvchi”, 2004.
12. Матчонов С., Сариев Ш. Ўзбек адабиёти. –Т.: Низомий номидаги ТДПУ. 2003.
13. Ниёзметова Т. Адабиёт дарсларидан мустақил ишлар. –Т.: Ўқитувчи, 1984.
14. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. –Т. Янги аср авлоди. 2006
15. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.:2010.

16. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: 2012.
17. Тўхлиев Б. Махsus fanlarni ўқитиш методикаси. – Т.: 2012
18. Ўқувчи маънавиятини шакллантириш. –Т.: Шарқ, 2000.
19. Ғуломова Н. Адабиёт дарсларида илғор педагогик технологиялардан фойдаланиш. Т.: 2003
20. ХусанбоеваҚ. Таҳлил – адабиётни англаш йўли.Т.: Муҳаррир, 2013.
21. DolimovS., UbaydullaevH., AhmedovQ. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent, 1967.
22. AxmedovaH. O‘zbek tili o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari. Toshkent. 2012.
23. AshurovT. O‘zbek xalq dostonlarida satira va yumor.Toshkent, 1974.
24. Жирмунский Б.М., Зарифов Х.Т., Узбекский народный героический эпос. М.: 1947.
25. ЩедринС. Об искусстве. М.: Изд-во Искусство, 1949.
26. O‘zbek folklor ocherklari. –Т.: “Fan” 1987.
27. GorkiyM.. Adabiyot haqida, Adabiy-tanqidiy maqolalar. Toshkent. Uzbekiston Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1962, 265-bet
28. Oxunjon Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. “Musiqa” nashriyoti, Toshkent-2010.
29. Ziyomuhammidov B. Tojiyev M. Pedagogik texnologiyalar – zamonaviy o‘zbek milliy modeli. – Т .: 2009.
30. Имомов К. Ўзбек халқ оғзаки прозаси. –Т.: “фан” 1981.
31. Жалолов Ғ. Ўзбек халқ ертаклари поэтикаси. -Т.: “Фан” 1976.
32. Кунтуғмиш. Ғофур Ғулом нашриёти.Т.: 1976.
33. Конфуций ҳикматлари. 5-синф учун дарслик-мажмуа. – Т.: “Ўқитувчи”, 1999. 37-бет.
34. Қаюмов А. Қўқон adabiy muhiti

III. Maktab darsliklari:

35. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: Sharq, 2011.
36. Ahmedov S., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua. – T.: Ma’naviyat, 2013.
37. Yo‘ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J.. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. T.: Sharq, 2013-yil.

IV. Dissertatsiyalar:

38. Келдиёров Р. Адабиёт дарсларисама радорлигини оширишнинг илмий-методика сослари. Пед.фан. номзоди. дисс. – Т.: 2001. 138б.
39. Матчонов С.
Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақилишларни таъкил этиш.
Пед.фан. доктор. дисс. – Т., 1998.
40. Мирқосимова М.
Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ватакомиллаш тиришу суллари. Пед.фан. доктор. дисс. – Т., 1995.

V. Journallar:

41. Afzalov M. I. Ertak janri. // O‘zbek tili va adabiyoti. 1989. №5.
42. Baxshulla Olimov.
Amaliymashg‘ulotlarni pedagogik texnologiyalar yordamida o‘tkazish.
Xalq ta’limi. 2013, №1
43. Buyuk Karimiy. O‘zbek xalq ertaklarining ba’zi bir xususiyatlari haqida. // O‘zbek tili va adabiyoti. №6.
44. Dilafro‘z Xidayotova. Malaka oshirish jarayonini takomillashtirishda interfaol usullar. Xalq ta’limi. 2014, №1.
45. Ergashali Shodiyev. “Zarbulmasal” – masallar to‘plamimi?. // O‘zbek tili adabiyoti. 1983, №2

46. Ergashali Shodiyev. Gulxaniy biografiyasiga doir mulohazalar.// O‘zbektiliadabiyoti. 1987, №1.
47. Fathiddin Isoqov. “Zarbulmasal” tanqidiy matnini yaratish. // O‘zbek tili adabiyoti. 1981, №4.
48. Feruza Sapayeva. Uzluksiz ta’lim tizimiga axborot texnologiyalarni tatbiq etishning afzalliklari. Xalq ta’limi. 2013 №2.
49. Hursanoy Rahmonova. O‘yinlar – dars samaradorligini oshiruvchi omil. Til va adabiyot ta’limi. 2015, №
50. Imomov K. Ertaklarda saterik obrazlar ifodasi, komizm vositalri.// O‘zbek tili va adabiyoti. 1981. №4
51. Imomov K. Ertaklarda tilsim. // O‘zbek tili va adabiyoti. 1977. №6
52. Jamoliddin Shermuhammadxon. Dars metodini to‘g‘ri tanladingizmi. Til va adabiyot ta’limi. 2013, №5,18-19 betlar.
53. Маҳкамой Турсунова. Адабиёт дарсларида шархлаш усули. Тил ва адабиёт таълими. 1992. №3-4.
54. Nodira Barotova. Noan’anaviy o‘yinlar. Til va adabiyot ta’limi. 2013, №6, 14-bet.
55. Нигора Умарова. “Мақоллар” мавзусини ўтишда интернетдан фойдаланиш. Тил ва адабиёт таълими. 2013, №2.
56. Турсуной Йўлдошева. Ўқувчиларни мустақил фаолиятга йўналтириш тажрибасидан. Тил ва адабиёт таълими. 2011, №5.
57. Suloymonova N. Ergashev N. “Zarbulmasal” asarida Gulxaniyning axloqiy qarashlari. Xalq ta’limi. 2013, №5
58. ВалижонҚодиров, Елмурод Насруллаев. Адабиёт ўқитишнинг ташкилий-дедактик вазифалар. Тил ва адабиёт таълими. 2013. №7.

VI. Lug‘atlar:

59. Ақобиров С. Ф., в.б. “Ўзбекча-русча луғат”. – М., 1959.
60. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I, - Т., 1981.

VII. Internet saytlari:

1. <http://pedagog.uz>.
2. www.pedagog.uz.
3. tdpu-INTERNET.Ped
4. www.Ziyonet.uz.